

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

S.S.NIYOZOVA

MA'MURIY JAVOBGARLIK
O'QUV QO'LLANMA

Toshkent – 2020

UDK: 342.92 (035.3) (575.1)

BBK: 67.401

M.34.

Toshkent davlat yuridik universiteti O‘quv-uslubiy kengashi tomonidan 2019-yildagi -sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

S.S.Niyozova Ma’muriy javobgarlik (Umumiy qism) / O‘quv qullanma. –T.: TDYU nashriyoti, 2020. bet.

Taqrizchilar:

O‘zbekiston Respublikasi Sudlar oliy kengashi a’zosi, sudya, y.f.d. Sh.Y.Abduqodirov;

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi va kriminologiya kafedrasи dotsent.v.b., y.f.n. X.M.Abzalova

Ushbu o‘quv qullanmada ma’muriy javobgarlik fani tushunchasi, predmeti va vazifalari; Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, ularning vazifalari va asosiy prinsiplari; Ma’muriy huquqbuzarlik va uning yuridik tarkibi; Ma’muriy javobgarlik tushunchasi va xususiyatlari; Ma’muriy jazo choralar tushunchasi, maqsadi va turlari; Ma’muriy jazo qo‘llanilishining umumiy qoidalari; Ma’muriy huquqbuzarlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilovchi davlat organlari va mansabdar shaxslar; Ma’muriy huquqbuzarlikni istisno qiladigan holatlar tushunchasi va turlari kabi masalalar bayon etilgan.

Ushbu o‘quv qullanma yuridik oliy o‘quv yurtlarining bakalavr va magistratura yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar va barcha qiziqqan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan.

© S.S.Niyozova.

© TDYU, 2020.

MUNDARIJA

So'z boshi

1-§. Ma'muriy javobgarlik fani tushunchasi, predmeti va vazifalari

2-§. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari, ularning vazifalari va asosiy prinsiplari

3-§. Ma'muriy huquqbuzarlik va uning yuridik tarkibi

4-§. Ma'muriy javobgarlik subyektlari klassifikatsiyasi (fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lмагan shaxslar, mansabdar shaxslar, voyaga yetmagan shaxslar va harbiy xizmatchilar va intizom ustavlari tatbiq etiladigan boshqa shaxslarning ma'muriy javobgarligi)

5-§. Ma'muriy javobgarlik tushunchasi va xususiyatlari

6-§. Ma'muriy jazo choralar tushunchasi, maqsadi va turlari

7-§. Ma'muriy jazo qo'llanilishining umumiy qoidalari

8-§. Yengilroq Ma'muriy jazo chorasiini va bir necha huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun Ma'muriy jazo qo'llanish tartibi

9-§. Ma'muriy qamoq va maxsus huquqdan mahrum etish muddatlarini hisoblash va ma'muriy jazo qo'llanish muddatlari

10-§. Ma'muriy huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilovchi davlat organlari va mansabdar shaxslar

11-§. Ma'muriy huquqbuzarlikni istisno qiladigan holatlarning tushunchasi va turlari

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

So‘zboshi

Mamlakatimizning huquqiy poydevorini mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta’minlash hamda demokratik fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy jamiyatni barpo etish maqsadida respublikamizning barcha ma’muriy sohalarini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Bu qonunlar xalqimizning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularni qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalashda ulkan ahamiyatga ega.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan ichki ishlar idoralari oldida xodimlarning huquqiy bilim darajasini oshirish, xizmat sohasida topshirilgan barcha ishlarni bajarishda qonunlarga og‘ishmay rioya qilish hamda aholi bilan ishlashda ularning yuksak huquqiy savodxonlik darajasini ta’minlash kabi nihoyatda mas’uliyatlari va dolzarb vazifalar qo‘yilmoqda. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish har bir xodimning burchidir.

“Ma’muriy javobgarlik” nomli o‘quv qullanmasida ma’muriy javobgarlik fani tushunchasi, predmeti va vazifalari, ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, ularning vazifalari va asosiy prinsiplari, ma’muriy huquqbuzarlik va uning yuridik tarkibi, ma’muriy javobgarlik tushunchasi va xususiyatlari, ma’muriy jazo choralarini tushunchasi, maqsadi va turlari; Ma’muriy jazo qo‘llanilishining umumiy qoidalari; Ma’muriy huquqbuzarlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilovchi davlat organlari va mansabdor shaxslari; Ma’muriy javobgarlik subyektlarning tasnifi; Ma’muriy huquqbuzarlikni istisno qiladigan holatlar tushunchasi va turlari kabi masalalar bayon etilgan.

O‘quv qullanma ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga keyingi yillarda kiritilgan o‘zgartish va qo‘srimchalar inobatga olingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining ma’muriy huquqbuzarliklarga oid ishlarni yuritish borasidagi sud amaliyoti materiallari ham o‘rin olgan.

Kitobxonlar hukmiga havola etilayotgan ushbu o‘quv qullanmadan respublikamizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda fuqarolar va tinglovchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi degan umiddamiz.

1-§. Ma’muriy javobgarlik fani tushunchasi, predmeti va vazifalari

Ma’muriy javobgarlik fani O‘zbekiston Respublikasi huquq tizimining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ma’muriy javobgarlik fani O‘zbekiston Respublikasining umumiy huquq tizimiga kirishi bilan birga o‘zining maxsus vazifalari, o‘rganadigan sohasi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa fanlardan, shu jumladan boshqa huquq tarmoqlaridan farq qiladi va ana shu farqlar uni mustaqil fan tarmog‘i sifatida o‘rganishni taqozo qiladi.

Ma’muriy javobgarlik fani yuridik fanlar tizimida mustaqil fan tarmog‘i ekanligi quyidagi o‘ziga xos belgilarda ifodalanadi:

1. Faqat ma’muriy javobgarlikgina qilmishning huquqbazarlik ekanligi va jazoga sazovorligini, ma’muriy javobgarlikning asoslarini, ma’muriy jazo tayinlash, qilmishning huquqbazarlik ekanligini istisno qiluvchi yuridik baza hisoblanadi. Boshqa birorta fan tarmog‘iga bunday xususiyat xos emas.

2. Ma’muriy javobgarlik o‘zi tartibga soladigan predmetiga egaki, bu ijtimoiy munosabatlar faqat huquqbazarlik sodir etilishi munosabati bilan vujudga keladi. To‘g‘ri, huquqbazarlik sodir etilishi munosabati bilan bir qator huquqiy fanlar (masalan, jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya huquqi) tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar vujudga keladi. Ammo huquqbazarlik sodir etilishi munosabati bilan har bir fan tarmog‘i o‘ziga tegishli bo‘lgan ijtimoiy munosabatni tartibga soladi.

Qilmishning huquqbazarlilagini va ma’muriy jazoga sazovorligini, ma’muriy jazo tayinlanishini faqat ma’muriy huquqbazarlik, ya’ni ma’muriy javobgarlikda belgilanadi. Boshqa birorta yuridik fan bu turdagи munosabatlarni tartibga solmaydi.

3. Ma’muriy javobgarlik munosabatlarining subyektlari bir tomonidan faqat davlat nomidan vakolatli davlat organlar bo‘lsa, ikkinchi tomonidan ma’muriy huquqbazarlik sodir qilgan shaxs hisoblanadi.

4. Ma'muriy javobgarlikka doir ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lib, yuridik fakt hisoblangan huquqbazarlik hodisasi sodir etilishi munosabati bilan uning normalari harakatga keladi.

Jinoyat huquqida esa ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish shakli jinoyat qonunida jinoyat deb hisoblangan qilmishlarni belgilash va ularni sodir etishni taqiqlash, jinoyat sodir etilgan taqdirda tayinlanadigan jazolarni belgilashdan iboratdir. Ijtimoiy munosabatlarni bunday tartibga solish shakli boshqa huquqiy fanlarga xos emas.

Ma'muriy javobgarlik fani predmeti ma'muriy javobgarlik normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardir. Ma'muriy javobgarlikning predmeti deganda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga xavf soluvchi ma'muriy huquqbazarliklar sodir etilishi bilan vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi.

Ma'muriy javobgarlik fani predmetini aniqlash bu ma'muriy javobgarlik normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasini belgilash demakdir.

Ma'muriy javobgarlik (uning shakli sifatida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi) ikki qismdan: umumiy va maxsus qismlardan tashkil topgan.

Ma'muriy javobgarlikning umumiy qismi ma'muriy javobgarlikning umumiy qoidalari, prinsiplari, ma'muriy huquqbazarlik tushunchasi, ma'muriy jazo turlari va ma'muriy jazo tayinlash asoslaridan iborat.

Ma'muriy javobgarlikning umumiy qismi ikkita asosiy tushuncha bilan bog'liq bo'lib, ular huquqbazarlik va ma'muriy javobgarlikdir. Qonun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning vazifalari va prinsiplarini, Ma'muriy javobgarlikning hudud va vaqt bo'yicha amal qilishini, ma'muriy javobgarlikning asoslarini belgilaydi. Har bir fan tarmog'i o'ziga tegishli sohaga tushuncha beradi va ma'muriy huquqbazarlik ham huquqbazarliklarni turkumlarga ajratadi (tasniflaydi).

Ma'muriy huquqbazarlikni qasddan va ehtiyotsizlikdan sodir etish holatlarini belgilaydi, ma'muriy javobgarlikka tortilish yoshini va

javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan shaxslar doirasini belgilaydi; huquqbazarlikni istisno qiladigan holatlar doirasini belgilaydi va ma’muriy jazoning maqsadi, har bir ma’muriy jazoning tizimini berib, ularning mazmunini oshib beradi.

Ma’muriy javobgarlikning Maxsus qismi alohida huquqbazarliklar va shu huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun tayinlanadigan ma’muriy jazolarni belgilaydi. Ma’muriy javobgarlik ana shu ikki qismdan iborat bo‘lsada, Umumiy va Maxsus qismlari bir-biridan alohida mustaqil huquq sohalari bo‘lmasdan, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bir butun yagona ma’muriy javobgarlikni tashkil etadi. Ma’muriy javobgarlikning Umumiy qismi asosida Maxsus qismi normalari qo‘llaniladi, shu sababli bu ikki qism bir butun tizimni tashkil etadi. Ma’muriy javobgarlikning Maxsus qismida alohida huquqbazarliklar va shu huquqbazarlikni sodir qilganlik uchun ma’muriy jazo belgilangan bo‘lsa, Umumiy qismi moddalarida Maxsus qismi moddalarining amalda qo‘llanish qoidalari o‘z ifodasini topgan. Qisqa qilib aytganda, Umumiy va Maxsus qism moddalarni amalda qo‘llash kaliti hisoblanadi. Ularni amalda tatbiq etishda bирgalikda qatnashadi. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning Umumiy qismi normalariga murojaat qilmasdan Maxsus qismining normalarini amalda tatbiq etib bo‘lmaydi, Umumiy qismining normalarini amalda tatbiq etilishi esa faqat Maxsus qismi normalari orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, ma’muriy javobgarlik Umumiy va Maxsus qismlarning yagonaligi ularning vazifalarining birligida, ya’ni ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari inson va jamiyat farovonligi yo‘lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiyadolat va qonuniylikni ta’minlashni, ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarning o‘z vaqtida va obyektiv ko‘rib chiqilishini, shuningdek bunday huquqbazarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi qanday harakat yoki harakatsizlik ma’muriy

huquqbazarlik hisoblanishini, ma'muriy huquqbazarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdar shaxs) tomonidan qay tartibda ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi.

2-§. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari, ularning vazifalari va asosiy prinsiplari

O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan va 1995-yil 1-apreldan kuchga kiritilgan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 1-moddasiga binoan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari:

- 1) Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks;
- 2) O'zbekiston Respublikasi qonunlari;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;
- 5) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- 6) Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari;
- 7) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining va Vazirlar Kengashining qarorlari;
- 8) xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlarining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlaridan iborat.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunlar ma'muriy huquqning tarkibiy qismi bo'lib, kodeksning 2-moddasida bevosita ko'rsatib o'tilganidek, bizning konstitutsiyaviy tuzumimizni, mulkchilikning barcha shakllarini, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, shaxsiy huquqlari va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqaruv tartibini, davlat va jamoat tartibini muhofaza qilishda, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashda ishtirok etadi.

Konstitutsiyaviy tuzum jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarini o'z ichiga oladi. Iqtisodiy tizim asosini mulkchilik tashkil etadi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining muhim vazifalaridan biri mulkni muhofaza qilishdir (masalan, mol-mulkni

mayda o‘g‘rilik qilgani uchun ma’muriy javobgarlik). Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari yordamida qonun bilan belgilangan xo‘jalik yuritish printsiplari ham himoya qilinadi. Masalan, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibini buzish (171-modda), yonilg‘i moylash materiallarini qabul qilish, hisobga olish, saqlash, berish, olish qoidalarini buzish (172-modda) va boshqalar ma’muriy javobgarlikka tortilishga sabab bo‘ladi.

Tabiatni (yer, yer osti boyliklari, suv, o‘rmonlar, hayvonot olami, atmosfera havosini) muhofaza qilish qoidalarining buzilishiga, ana shu obyektlardan nooqilona foydalanishga qarshi kurash ham iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir, shu bilan birga, ularning ko‘pi (yer, yer osti boyliklari, o‘rmonlar) davlatning favqulodda mulki hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat organlari, jamoat tashkilotlari, mansabdar shaxslar va fuqarolar zimmasiga tabiatni va uning boyliklarini avaylab saqlash va himoya qilish vazifasini yuklaydi (50-modda). Mazkur vazifani (masalan, tabiatni muhofaza qilish qoidalarini, ov qilish va baliq ovlash qoidalarini buzganlik uchun) amalga oshirish ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi me’yorlar bilan mustahkamlanadi.

Konstitutsiyaviy tuzumni muhofaza qilishga militsiya xodimlarining qonuniy farmoyishlari va talablariga qasddan bo‘ysunmagan shaxslarga, pasport tizimini, chegara rejimini, O‘zbekistonga kelish va undan chiqib ketish qoidalarini buzuvchi shaxslarga ta’sir ko‘rsatishning ma’muriy-huquqiy usullari ham kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (52-modda) Vatan himoyasini konstitutsiyaviy tuzum va O‘zbekiston siyosati asoslariga kiritadi. “Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonun mazkur konstitutsiyaviy qoidalarni O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini haqiqiy harbiy xizmatga chaqirishni belgilash va Qurolli Kuchlar zaxirasida bo‘lgan davrda belgilangan burchlarni bajarish yo‘li bilan ro‘yobga chiqarish usullarini belgilaydi. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari harbiy hisobda turish qoidalarini buzganlik uchun, chaqiruv bo‘yicha mudofaa ishlari bo‘limlariga kelmaganlik, harbiy hujjatlarni yo‘qotganlik, o‘quv yoki tekshiruv yig‘inlari va

hokazolarga kelmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilash yo'li bilan mazkur tartibga rioya qilinishiga ko'maklashadi.

Konstitutsiya O'zbekiston fuqarolariga ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va shaxsiy huquq hamda erkinliklarning to'laligini mustahkamlaydi va kafolatlaydi. Shu bilan birga, fuqarolarning huquq va erkinliklardan foydalanishi jamiyat va davlat manfaatlariga, boshqa fuqarolarning huquqlariga ziyon yetkazmasligi lozim. Fuqarolarning huquqlarini buzadigan, ularning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadigan ko'pgina xatti-harakatlar ma'muriy javobgarlikka tortilishga sabab bo'ladi. Masalan, bunday javobgarlik mehnat haqidagi qonun hujjatlarini hamda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi qoidalarini buzganlik, sanitariya-gigiyena va epidemiologik qoidalarni buzganlik uchun tatbiq etiladi. Mayda bezorilikka, ichkilikbozlikka, jamoat tartibi va savdo qoidalarni buzishlarga, uy hayvonlarini saqlash tartibini buzishga va hokazolarga qarshi kurash to'g'risidagi ma'muriy qonunlarining me'yorlari fuqarolarning shaxsini, huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish maqsadlariga xizmat qiladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ham huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi. Masalan, yer to'g'risidagi qonunlarning qoidalariiga muvofiq o'rnatilgan cheklovchi belgilarni yo'qotishda aybdor bo'lgan shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Xuddi shunday yo'l bilan o'rmon xo'jaligi tashkilotlari va jamoa xo'jaliklarining huquqlari daraxtlarni g'ayriqonuniy ravishda kesadigan, o'rmonlardagi cheklovchi belgilarni yo'q qiladigan va shikastlantiradigan shaxslarning xatti-harakatlaridan himoya qilinadi. Bu tashkilotlarning manfaatlari davlat o'rmon fondi yerlaridan g'ayriqonuniy ravishda foydalanganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanishi bilan ham himoya qilinadi. Chiptasiz yurganlik uchun jarima belgilanishi yo'lovchi tashish korxonalarining mulkiy manfaatlarini himoya qiladi.

Boshqaruvtartibi (bu so'zning tor ma'nosida) deganda ijro etish – farmoyish berish faoliyatini amalga oshirish tartibi tushuniladi. Masalan, o'zboshimchalik shunday tushunishdagi boshqarish tartibining

buzilishidir (200-moddaning sharhiga qarang). So‘zning keng ma’nosidagi boshqarish tartibi o‘ziga ma’muriy huquq normalari bilan belgilangan bironbir faoliyatni amalga oshirishning har qanday tartibini o‘z ichiga oladi. Standartlarni buzganlik uchun javobgarlik bunga misoldir (212-modda).

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 2-moddasi mazmunidan shu narsa kelib chiqadiki, ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunlar vazifalariga, avvalo, odamlarni Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish ruhida tarbiyalash yo‘li bilan erishiladi. Bu qonun hujjatlari fuqarolarning huquqlari, or-nomusi va qadr-qimmatini, yashash qoidalarini hurmat qilish, o‘z vazifalarini vijdonan bajarishni yuklaydi. Shu bilan birga, qonun hujjatlari fuqarolar va mansabdar shaxslar o‘z xatti-harakatlari uchun jamiyat oldida javobgar ekanliklarini ham anglatadi. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning mazkur moddasini talqin qilishda shuni nazarda tutish kerakki, bu modda ma’muriy huquqbazarliklarning tasnifini emas, balki ularning obyektlari doirasiga umumiy tavsifini beradi. Shu bilan birga, mazkur ma’muriy huquqbazarlik, ayni vaqtda, bir nechta obyektga ham ega bo‘lishi mumkin. Masalan, chegara mintaqasiga kirish va u yerda yashash O‘zbekiston Respublikasi davlat xavfsizligiga, ya’ni davlat tartibiga qarshi qaratilgan, lekin ayni vaqtda bu boshqaruv tartibiga ham tajovuz qilishdir. Kodeks yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzishni boshqaruv tartibiga tajovuz qiluvchi ma’muriy huquqbazarlikka kiritadi, lekin pirovard natijada u fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga xavf soladi, mulkka zarar yetkazadi. Mazkur moddada huquqbazarlikning oldini olish vazifasi ko‘rsatib o‘tilgan, ya’ni ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi butun qonun hujjatlariga xos bo‘lgan uning profilaktik yo‘nalishi aniq ifodalab berilgan.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 2-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatib o‘tilishicha, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks qanday harakat yoki harakatsizlik ma’muriy huquqbazarlik hisoblanishini, ma’muriy huquqbazarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdar shaxs) tomonidan qay tartibda

qanday ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishi mumkinligini ham belgilab beradi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifasi – inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiyadolat va qonuniylikni ta'minlashni, ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqilishini, shuningdek bunday huquqbazarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun, qonun hujjatlari, qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbazarlik hisoblanishini, ma'muriy huquqbazarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdor shaxs) tomonidan qay tartibda qanaqa ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi.

Ma'muriy javobgarlikni tartibga soluvchi asosiy qonun hujjati O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi bo'lib, respublika miqyosidagi ma'muriy javobgarlik me'yorlarini tartibga soladi, ya'ni:

birinchidan, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining umumiyl holatlari va prinsiplarini mustahkamlaydi;

ikkinchidan, respublika miqyosida umummajburiylik xususiyatiga ega bo'lgan qoidalarning buzilishi uchun ma'muriy javobgarlikni o'rnatadi;

uchinchidan, ma'muriy huquqbazarlik ishlarini ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish jarayonini tartibga soladi;

to'rtinchidan, ma'muriy jazo turlarini va ma'muriy-protsessual majburlov choralarini o'rnatadi.

Deyarli barcha ma'muriy javobgarlikni belgilovchi huquqiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi doirasida umumlashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari:

1) moddiy va protsessual huquqiy me'yorlar tizimini o'zida ifoda etadi;

2) fuqarolarning ma'muriy javobgarligini nazarda tutadi;

3) ma'muriy va sud tartibida ma'muriy huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladigan ma'muriy javobgarliklarni tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Fuqarolik va Fuqarolik-protsessual kodekslaridan farqli ravishda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks ikki xildagi huquqiy me'yorlarni o'zida ifoda etgan:

a) javobgarlikning umumiy holatlarini va prinsiplarini, huquqbuzarlik tarkibini, ma'muriy jazo choralarini belgilab beruvchi moddiy-huquqiy me'yorlar;

b) huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqish va jazo qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish jarayonini tartibga soluvchi protsessual-huquqiy me'yorlar.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy prinsiplari quyidagilardan iboratdir:

a) qonuniylik prinsipi;

b) fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi;

d) demokratizm prinsipi;

e) insonparvarlik prinsipi;

f) odillik prinsipi;

g) ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi printsipi.

Ma'muriy javobgarlikning prinsiplari deganda, umuman, ma'muriy javobgarlikning va uning tizimi alohida institutlarining mazmunini belgilovchi, unga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan ma'muriy javobgarlikning normalarida mujassamlashgan boshlang'ich rahbariy-nazariy g'oyalar tushuniladi.

Ma'muriy javobgarlikning prinsiplari O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 3-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, ma'muriy javobgarlikning har bir prinsipi mustaqil mazmunga ega bo'ladi va ular bir-biri bilan bog'liq bo'lган, yagona tizimdan tashkil topgan prinsiplar majmuidan iborat.

Qonuniylik – huquqiy hujjatlarning davlat boshqaruvi organlari tomonidan qonunni bajarish maqsadida va qonunga asoslangan holda qabul qilinishi demakdir. O‘zbekiston Respublikasi hududida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasi). Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi mazmunidan shuni ko‘rishimiz mumkinki, huquqbazarlik sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo‘lib, qonun oldida tengdirlar.

Qonuniylik shuni bildiradiki, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolarning jamoat birlashmalari Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq harakat qilishlari lozim. Ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni qarab chiqish va ma’muriy javobgarlikka tortish ana shundan kelib chiqib, ushbu kodeks qoidalari asosida demokratizm, insonparvarlik va odillik prinsiplariga rioya qilingan holda amalga oshirilishi lozim.

Fuqarolarning tengliligi prinsipi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida qayd etilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston xalqini millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etishi ta’kidlanadi. Binobarin, Konstitutsiyamizning 18-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Fuqarolarning qonun oldidagi tengligi to‘g‘risidagi Konstitutsiyaviy prinsip ancha keng tushuncha bo‘lib, faqat ma’muriy javobgarlik uchun emas, balki barcha qonunlar uchun nazarda tutilsa, ma’muriy javobgarlikdagi hammaning qonun oldidagi tengligi faqat huquqbazarlik sodir etishda ayblanayotgan shaxslarga tegishli xolos. Ya’ni fuqarolarning qonun oldidagi tengligi faqat ma’muriy huquqbazarlik uchun teng javobgarlik majburiyatidangina iborat bo‘lmay, ma’muriy

huquqbazarlik sodir etishda ayblanayotgan barcha shaxslar o‘z qilmishlarini qonunga muvofiq ravishda baholanishini talab qilish huquqiga bir xilda egadirlar. Fuqarolarning qonun oldidagi tengligi shuni anglatadiki, O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga egadirlar hamda jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Demokratizm prinsipining ma’muriy huquqbazarlikdagi (qonunchilikdagi) mohiyati shundaki, Jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoalar huquqbazarlik sodir etgan shaxsning axloqini tuzatish ishiga qonunda nazarda tutilgan hollarda jalb qilinishlari mumkin.

O‘zR Konstitutsiyasining 7-moddasida “xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir” deyiladi. Shunga ko‘ra, bu prinsip bozor iqtisodiyoti tizimiga asoslangan huquqiy demokratik davlatning eng muhim prinsiplaridan hisoblanib, jinoyat qonuning normalari amalda qo‘llanishida, jamoatchilikning yoki ularning vakillarini ma’muriy javobgarlik qonuni normalarini amalda tatbiq etishda jamoatchilik qatnashuvividir. Jumladan, ma’muriy jazo tayinlash va ma’muriy jazoga hukm qilinganlarni tarbiyalashda bevosita jamoatchilik kuchidan foydalanishda ma’muriy javobgarlikning demokratik prinsipi namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, voyaga yetmasdan huquqbazarlik sodir qilganlarni tarbiyalashda jamoatchilik faol jalb qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 14-moddasiga asosan ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar to‘g‘risidagi nizomda nazarda tutilgan choralar qo‘llaniladi. Insonparvarlik prinsipida ma’muriy jazo va boshqa ma’muriy huquqiy ta’sir choralar jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko‘zlamaydi. Ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi huquqbazarlik sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo‘ladigan ma’muriy jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishi kerak.

Ma'muriy jazolashdan ko'zlangan maqsadga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining Maxsus qismi tegishli moddalarida nazarda tutilgan yengilroq choralarni qo'llash orqali erishib bo'lmaydigan taqdirdagina og'irroq ma'muriy jazo choralari tayinlanishi mumkin.

Insonparvarlik prinsipi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasidayoq belgilab qo'yilgan bo'lib, unda insonparvar demokratik huquqiy davlatni barpo etish maqsad qilinadi.

Ma'muriy javobgarlikning insonparvarlik prinsipi huquqbazarlik sodir qilgan shaxsga ham, jabrlanuvchiga ham birday taalluqlidir. Ma'muriy javobgarlikning insonparvarlik prinsipi, eng avvalo, ijtimoiy tuzumning ijtimoiy siyosiy mohiyati, ma'muriy javobgarlikning maqsad va vazifalari bilan bog'liqdir.

Ma'muriy javobgarlikning huquqbazarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan insonparvarlik prinsipi, eng avvalo, huquqbazarlik sodir qilgan shaxsga nisbatan ma'muriy jazo chorasi qo'llanilar ekan, jismoniy azob berish, insoniy qadr-qimmatni kamsitishga aslo yo'l qo'yilmaydi.

Har bir fuqaro, huquqbazarlik sodir qilgan yoki umuman huquqbazarlik sodir qilmaganligidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va O'zbekiston qonunlarining himoyasi ostidagi shaxsdir. Har bir huquqbazarlik sodir qilgan shaxsga nisbatan qonunda ko'rsatilganidan boshqacha munosabatda bo'lishga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasi 2-qismida "hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi qiynoqqa duchor etilishi mumkin emas" deb ta'kidlangan bo'lib, bu huquqbazarlik sodir qilgan shaxslarga ham taalluqlidir. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 22-moddasiga ko'ra ma'muriy jazo javobgarlikka tortish chorasi bo'lib, u ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek ana shu huquqbuzarning o'zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbazarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llanishining o'zi ma'muriy javobgarlikning insonparvarlik prinsipidir.

Bundan tashqari, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari ma’muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga, fuqarolarni ongli, intizomli bo‘lish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan tadbirlar ishlab chiqadilar va ularni amalga oshiradilar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq qonuniylik, huquq-tartibot va fuqarolar xavfsizligini ta’minlab, o‘z hududlarida barcha davlat organlari va jamoat birlashmalarining ma’muriy huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi ishlarini muvofiqlashtirib turadilar. Ichki ishlar organlari, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar hamda ularga hisobdor ma’muriy huquqbuzarlik bilan kurash olib boruvchi boshqa organlar faoliyatiga rahbarlik qiladilar.

Odillik prinsipi huquqbuzarlik sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan ma’muriy jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi odilona bo‘lishi, ya’ni huquqbuzarlikning og‘ir-yengilligiga aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo‘lishidir. Ushbu prinsipning mohiyati huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to‘la isbotlangan va bunga ishonch hosil qilingan, qonunga muvofiq keladigan holatlarga asoslanganligidadir. Ma’muriy javobgarlikning odillik prinsipi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning Maxsus qismi moddalari sanksiyalarida huquqbuzarlik uchun tayinlanadigan ma’muriy jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasida o‘z ifodasini topadi.

Ayb uchun javobgarlik prinsipi shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan huquqbuzarligi uchungina javobgar bo‘lishidir. Ayb har qanday huquqzarlikning subyektiv tomonining zaruriy belgisidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga ko‘ra jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Demak, ayblilik har qanday huquqbuzarlik va

jinoyatning zaruriy belgisi bo‘lib, huquqbazarlik sodir etishda ayblanayotgan shaxsning huquqbazarligi uchun ma’muriy jazo tayinlashda aybning shakli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aybning shakli va uning turlari ma’muriy jazoning miqdori yoki boshqacha huquqiy ta’sir chorasini qo‘llashning muhim sharti hisoblanadi.

Ma’muriy javobgarlikda faqat subyektiv ayblilik qoidasi mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, obyektiv ayblilikka (muayyan huquqbazarlik sodir etilishida shaxsning umuman aybi yo‘qligi) qat’iyan yo‘l qo‘yilmaydi. Shaxsning qilmishi tufayli qanday oqibatlar kelib chiqqanligidan qat’i nazar, agar bu oqibatlar kelib chiqishida uning aybi bo‘lmasa, qilmishi huquqbazarlik hisoblanmaydi. Shaxsning muayyan oqibat kelib chiqqanligida aybi yo‘qligi uning o‘z harakatlarining ahamiyatini anglay olmasligi va harakatlarini boshqara olmaganligi bilan ham belgilanadi. Shaxsni muayyan huquqbazarlikni sodir etishda ayblast uchun faqat o‘scha huquqbazarlikni sodir etish maqsadining borligi, ya’ni o‘z harakatlarini idora qilish va harakatlari tufayli kelib chiqadigan oqibatni anglashning o‘zi yetarli bo‘lmay, qilmishning obyektiv va subyektiv tomonlarida o‘zaro bog‘liqlik bo‘lishi, ya’ni obyektiv va subyektiv tomonlarning birligi bo‘lishi kerak. Ana shundagina shaxsni muayyan huquqbazarlik sodir etishda ayblab javobgar qilish mumkin.

Ayb qilganlik uchun javobgarlikning muqarrar ekanligi shuni anglatadiki, ma’muriy huquqbazarlikka yo‘l qo‘ygan birorta ham shaxs jazosiz qolmasligi lozim.

3-§. Ma’muriy huquqbazarlik va uning yuridik tarkibi

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 10-moddasiga binoan esa ma’muriy huquqbazarlik deganda (faktik asosi) qonun hujjalariiga binoan ma’muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g‘ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyoitsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

Quyidagi harakat yoki harakatsizlik ya’ni: 1) g‘ayrihuquqiy; 2) aybli (qasddan yoki ehtiyyotsizlik orqasida); 3) shaxsga, davlat va jamoat tartibiga, mulkchilikka, fuqarolarning huquklari va erkinliklariga, tabiiy muhitga tajovuz qilish; 4) qonun hujjatlarida aynan ma’muriy javobgarlik nazarda tutilgan holatlar huquqbazarlik deb e’tirof etiladi. Bu tushuncha ma’muriy huquqbazarliklarning yuridik belgilariga ega bo‘lib, jamiyatga, davlatga va fuqarolarga, korxonalarga, muassasalarga va tashkilotlarga zarar yetkazishni ko‘rsatib o‘tish yo‘li bilan ularga ijtimoiy tavsif beradi.

Ma’muriy huquqbazarlikning uchta belgisi bor:

- 1) ayblilik;
- 2) g‘ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik;
- 3) javobgarlikka tortish.

Boshqa huquqbazarliklar ham harakat (masalan, mayda o‘g‘rilik) yoki harakatsizlik (masalan, transportda chiptasiz yurish), ya’ni xatti-harakatlar ham ma’muriy huquqbazarliklardir. Lekin mazkur holatda qonun chiqaruvchi (kodeksni tushunish ko‘proq qulay bo‘lishi uchun) “xatti-harakat” atamasini ishlatmagan.

Ma’muriy huquqbazarlik nomining o‘zidan ham ko‘rinib turibdiki, g‘ayrihuquqiy xatti-harakatdir. Bu qilinishi taqiqlangan narsani sodir etish yoki huquqiy norma bilan buyurilgan narsani qilmaslikdir. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning ba’zi moddalari muayyan turdagи huquqbazarliklarga ta’rif berishda gipotezani (dispozitsiyani) va huquqiy norma sanksiyasini o‘z ichiga oladi, lekin ko‘pincha u “qoidalarni buzish” degan havola qiluvchi ifodani qo‘llaydi (so‘ngra aynan qanday qoidalalar haqida gap borayotgani ko‘rsatiladi va sanksiya qo‘llaniladi).

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks ma’muriy huquqbazarliklar tajovuz qiladigan ijtimoiy munosabatlar doirasini atroflicha tavsiflab bergan bo‘lib, u kodeksning Maxsus kismida o‘z ifodasini topgan. Xususan, u yerda ma’muriy huquqbazarliklar insonning sog‘lig‘iga qarshi qaratilgan, mulkka tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar haqida, tabiiy mo‘hitni muhofaza qilish sohasidagi, sanoat, qurilish, issiqlik va elektr energiyasidan foydalanish sohasidagi,

savdo va moliya sohasidagi huquqbazarliklar to‘g‘risidagi boblar bor va hokazo.

Qonun chiqaruvchi ma’muriy huquqbazarliklarga ijtimoiy tavsif berar ekan, jinoyatlardan farqli o‘laroq, ularni ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar deb atamagan. Bu bilan huquqbazarliklar mazkur ikki turining sifat farqlari qayd etilgan, joriy qonun hujjatlari amaliyoti esa javobgarlikning sodir etilgan aybga muvofikligini ta’minlashga va davlat majburlashining haddan tashqari kengayishiga barham berilishiga qaratilgan. Ijtimoiy xavfli qilmish bu ijtimoiy munosabatlarga ma’lum bir zarar keltiradigan yoki keltirishi mumkin bo‘lgan qilmishdir. Bunday xatti-harakatlarning yig‘indisi ma’lum bir tarixiy sharoitda jamiyatning mavjud bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli barcha huquqbazarlikni (shuningdek, ma’muriy nojo‘ya xatti-harakatlarni) ijtimoiy xavfli qilmish deb topish mumkin emas.

Ba’zi bir huquqshunos olimlar, ma’muriy nojo‘ya xatti-harakatlarda ijtimoiy xavf mavjud bo‘lishini butunlay inkor etishadi. Lekin shu holatga ham e’tibor berish kerakki, umumiyligida qoidaga to‘g‘ri kelmasa ham, ba’zi bir nojo‘ya xatti-harakatlar ijtimoiy xavfni yuzaga keltirishi mumkin. Nojo‘ya xatti-harakatlar odatda ijtimoiy xavflilik xususiyatiga ega bo‘lmay, ijtimoiy zararli qilmish hisoblanadi.

Demak, jinoyatning nojo‘ya xatti-harakatdan asosiy farqi unda qilmish ijtimoiy xavfli hisoblanadi. Ma’lumki, sodir etilgan jinoyatlar uchun sanksiyalar jinoiy qonun hujjatlarida jazolash deb atalgan, xususan, jazo sifatida tafsiflangan. Ma’muriy huquqda esa jazolash va jazo atamalari yo‘q va bu bilan ham jinoyatlar bilan ma’muriy huquqbazarliklar uchun beriladigan sanksiyalar sifat jihatidan farq qilishi ta’kidlangan. Ma’muriy huquqbazarliklar faqat javobgarlik me’yori deb atalgan va ma’muriy huquqbazarlikni sodir etgan shaxslarni qonunlarga rioya qilish, umumiyligida qoidalarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek huquqbuzarlarning ham, boshqa shaxslarning ham yangi huquqbazarliklar sodir etishining oldini olish maqsadida tatbiq etiladi.

Binobarin, qonun chiqaruvchi ma’muriy jazolashlarni qo‘llanish maqsadlarini aniqlash vaqtida jinoiy jazolash maqsadlaridan farqli

o‘laroq, tuzatish va qayta tarbiyalash deb ko‘rsatib o‘tmaydi, bu ham jinoyatni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llanadigan choralar bilan ma’muriy huquqbazarlikka yo‘l qo‘ygan shaxslarga nisbatan (bular odatda tuzatish va qayta tarbiyalashga muhtoj emas) qo‘llanadigan choralar o‘rtasidagi farqlar ta’kidlanadi.

Biroq, ma’muriy huquqbazarliklar orasida jinoyatlarga tugashib ketadiganlari va ularga yaqinlari ham bo‘ladi. Ana shu “chevara mintaqasi”ga nisbatan huquqbazarliklarni to‘g‘ri tasniflash muammosi juda muhim va ayni vaqtida murakkab. Kodeksning Maxsus qismi ko‘pgina ifodalari ma’muriy huquqbazarliklar bilan ularga yaqin jinoyatlar o‘rtasidagi aniq chevara ajratuvchi chiziqlarga ega emas.

Ana shunday chevara ajratuvchi chiziqlar hamisha ham ko‘zga tashlanavermaydi, ular faqat Jinoyat kodeksi bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning tegishli moddalari qiyoslangandagina ko‘zga tashlanadi.

Qonun chiqaruvchi chevara ajratuvchi chiziqlar sifatida quyidagi belgilardan foydalaniladi: og‘ir oqibatlarning mavjudligi, ana shunday oqibatlarning ro‘y berishi mumkinligi; huquqbazarlik yetkazgan zararning miqdori; ma’muriy jazo qo‘llangan taqdirda huquqbazarlik sodir bo‘lishining takrorlanishi yoki bir necha marta sodir bo‘lishi, qasddan yoki ehtiyoitsizlik oqibatida huquqbazarlikning sodir etilishi qasddan sodir etilgan ayb jinoyat hisoblanadi (jinoyat belgilari orasida kamdarkam hollarda foydalaniladi).

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 10-moddasidan ko‘rinib turibdiki, ma’muriy huquqbazarlik deb shunday g‘ayrihuquqiy xatti-harakat tushuniladiki, uni sodir qilganlik uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan, lekin bu javobgarlik boshqa bironbir javobgarlik (jinoiy, intizomiy, moddiy va hokazolar emas, balki ma’muriy javobgarlikdir), hamma uchun majburiy bo‘lgan qoidalarning barchasi ham ma’muriy javobgarlik bilan muhofaza qilinavermasligini hisobga olish kerak.

Qonun ma’muriy huquqbazarlik belgilarini ifodalangan harakat yoki harakatsizlikning subyektiv tomoniga katta e’tibor beradi va shuni hisobga olgan holda ma’muriy huquqbazarlikni u bilan tashqi tomondan

o‘xhash bo‘lgan obyektiv g‘ayrihuquqiy xulq-atvordan, u bilan rasman o‘xhash bo‘lgan harakatlardan chegaralaydi. Masalan, oxirgi zarurat, zaruriy mudofaa va g‘ayrishuuriy holat, qonunga ko‘ra, ma’muriy huquqbuzarlikning yo‘qligini bildiradi va shu sababli ma’muriy javobgarlikni istisno qiladi. Shu munosabat bilan kodeksning 18 va 19-moddalarida (zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat to‘g‘risida) ma’muriy huquqbuzarliklar haqida emas, balki kodeksda yoki boshqa normativ hujjatlarda ko‘zda tutilgan, ma’muriy huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik belgilaydigan xatti-harakat to‘g‘risida gapiriladi, 20-moddada esa (aqli norasolik to‘g‘risida) g‘ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik to‘g‘risida gap boradi, ya’ni bu ham ma’muriy javobgarlikdan ozod etadi.

Ma’muriy huquqbuzarlik tarkibi bu ma’muriy huquq me’yorlari bilan o‘rnatilgan xususiyatlarning yig‘indisi bo‘lib, ularning mavjud bo‘lishi bilan aniq bir qilmishlar ma’muriy huquqbuzarlik sifatida tan olinadi.

Har qanday huquqbuzarlik tarkibi singari, ma’muriy huquqbuzarlik ham huquqbuzarlikning obyekti va obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoni kabi xususiyatlar yig‘indisidan iborat. Ma’muriy huquqbuzarlikning obyekti bu ma’muriy huquq me’yorlari bilan o‘rnatilgan va muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Bu birinchi navbatda davlat boshqaruvi sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlardir. Davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida nafaqat ma’muriy huquq me’yorlari bilan, balki ma’muriy-huquqiy vositalar bilan muhofaza etiladigan boshqa huquq tarmoqlari (konstitutsiyaviy, moliya, yer, mehnat va h.k.) me’yorlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar ham yuzaga keladi. Shu sababli ma’muriy huquqbuzarlik obyektiga ma’muriy javobgarlik me’yorlari bilan himoya qilinadigan har qanday munosabatlarni kiritish mumkin.

Ma’muriy huquqbuzarlikning obyektiv tomoni bu huquqqa xilof qilmishdir, ya’ni ma’muriy huquqbuzarlik obyektiga qaratilgan harakat yoki harakatsizlik, uning xususiyatlari, shuningdek uni sodir etish (yoki

sodir etmaganlik) sharoitlari hisoblanadi. Ma'muriy huquqbazarlik obyektiv tomondan ikki ko'rinishga ega:

birinchidan, ma'muriy huquqbazarlikni harakat natijasida sodir etish. Harakat insonning faol xulq-atvori hisoblanadi. Aksariyat ma'muriy huquqbazarliklar obyektiv tomondan shaxslarning harakati orqali sodir etiladi. Masalan, tuhmat, haqorat qilish, yengil tan jarohati yetkazish, o'rnatilgan turli umummajburiy qoidalarni buzishda ifodalangan huquqbazarliklar – harakatlar natijasida sodir etiladi;

ikkinchidan, ma'muriy huquqbazarlikning harakatsizlik natijasida kelib chiqishi. Harakatsizlik insonning passiv xulq-atvori bo'lib, odatda belgilangan vazifani, majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlikda ifodalanadi. Masalan, mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning murojaatlari o'z vaqtida ko'rib chiqilmaganligi, ota-onalarning bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik, hokimiyat vakilining qonuniy talablarini bajarmaganlikda ifodalangan huquqbazarliklar harakatsizlik natijasida kelib chiqadi.

Ma'muriy huquqbazarlikning subyekti bu 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxsdir.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarida Ma'muriy javobgarlikning subyektlari uch guruhga bo'lingan:

1) umumiy subyekt – har qanday 16 yoshga to'lgan jismoniy shaxs. Jumladan, O'zR MJtKning 13-moddasida Ma'muriy javobgarlik subyekti umumiy holda ko'rsatib o'tilgan;

2) maxsus subyekt – umumiy subyektlarga qaraganda o'ziga xos xususiyatlarga (qo'shimcha belgilarga) ega bo'lgan subyektlardir. Ma'muriy huquqbazarlikning maxsus subyektiga mansabdor shaxslarni, haydovchilarni, voyaga yetmaganlarni va boshqalarni kiritish mumkin.

3) alohida subyekt – intizom ustavlari yoki xizmat to'g'risidagi nizomlar tatbiq qilinadigan shaxslar kiradi. Masalan, harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar. Ma'muriy huquqbazarlikning alohida subyektlari maxsus subyektlarning

alohida guruhini tashkil etadi. Alohida subyektlar ham maxsus subyektlar singari o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Ma’muriy huquqbazarlikning subyektiv tomoni bu huquqbazarlik subyekti (jismoni shaxs)ning huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik hamda uning oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabati hisoblanadi.

Boshqa huquqbazarliklar singari Ma’muriy huquqbazarliklar ham aybli xatti-harakat, ya’ni qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida qilingan xatti-harakat hisoblanadi. Aqli noraso shaxs faqat obyektiv ravishda g‘ayrihuquqiy xatti-harakatni sodir qiladi, Ma’muriy huquqbazarlikni sodir etmaydi.

Har qanday huquqbazarlik singari Ma’muriy huquqbazarlik ham huquqqa xilof aybli sodir etilgan qilmish hisoblanadi. Huquqbuzarning huquqqa xilof qilmishni sodir etishda aybi mavjud bo‘lganida uni javobgarlikka tortish mumkin. Ayb bu sodir etilgan qilmishga nisbatan shaxsning ruhiy munosabatidir. Ayb ikki shaklda: qasd va ehtiyotsizlikda ifodalangan bo‘lishi mumkin. Ayb Ma’muriy huquqbazarlik subyektiv tomonining majburiy xususiyati hisoblanadi.

Ma’muriy huquqbazarlik aybning ikki shaklida ham, ya’ni qasddan va ehtiyotsizlikdan sodir etilishi mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 11-moddasiga binoan Ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxs o‘z harakati yoki harakatsizligi g‘ayrihuquqiy ekanligini bilgan bo‘lsa, uning zararli oqibatlariga ko‘zi etgan, yuz berishini istagan yoki bu oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, bunday Ma’muriy huquqbazarlik qasddan sodir etilgan deb hisoblanadi.

Ma’muriy huquqbazarlikni qasddan sodir etish ikki ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

a) to‘g‘ri qasd, ya’ni Ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxs o‘z harakati yoki harakatsizligi g‘ayrihuquqiy ekanligini biladi, uning zararli oqibatlariga ko‘zi yetadi va uning yuz berishini istaydi;

b) egri qasd, ya’ni Ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxs o‘z harakati yoki harakatsizligi g‘ayrihuquqiy ekanligini biladi, uning zararli oqibatlariga ko‘zi yetadi va bu oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo‘l qo‘yadi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks Maxsus qismining ayrim moddalarida aybning qasddan sodir qilingan shakli to'g'ridan to'g'ri ko'rsatib o'tiladi. Bular Ma'muriy huquqbuzarliklarning harbiy biletni, harbiy hisob hujjatlarini qasddan yaroqsizlantirish (236-modda), muhrlar (plombalar)ni qasddan buzish yoki yulib olish (228-modda) kabi tarkiblaridir. Biroq ko'pchilik hollarda huquqbuzarlik tarkibining subyektiv tomoni to'g'risida Maxsus qismning tegishli moddasida keltirilgan barcha belgilarni tahlil qilish asosidagina xulosa chiqarish mumkin. Qasddan sodir etilgan ayb, xususan, albatta g'arazli niyat bilan bog'liq bo'lib, maqsad belgisi guvohlik beradigan, masalan, militsiya xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik, mayda bezorilik qilgan vaqtida jamiyatdagi xulq-atvor qoidalarini qasddan mensimaslik, transport vositasi haydovchisining mastlik holati to'g'risida ko'rikdan o'tishdan bosh tortishi va hokazolar shular jumlasiga kiradi.

Ham qasddan, ham ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilishi mumkin bo'lган Ma'muriy huquqbuzarliklar tarkibida qasddan sodir etilgan aybning mavjudligi aybdorga nisbatan yanada qattiqroq jazo qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ma'muriy nojo'ya xatti-harakatlar barcha tarkibini, ham jinoyatlar tarkibini shartli ravishda rasmiy va moddiy tarkiblarga bo'lish mumkin. Ma'muriy nojo'ya xatti-harakatlar tarkibi mavjud bo'lishi uchun (Ma'muriy huquqda ular ancha ko'p topiladi) qonun hujjatlarida ko'rsatilgan harakat yoki harakatsizlikning sodir etilganligi yetarlidir, bunda uning natijasida qanday oqibatlar kelib chiqqanligi hisobga olinmaydi. Bunday nojo'ya xatti-harakatlarga, masalan, tegishli ro'yxatdan o'tmasdan yoki ruxsat olmasdan turib radioqurilmalar o'rnatish va foydalanish singarilar kiradi.

Huquqbuzarliklarning moddiy tarkiblari rasmiy tarkiblardan farqli o'laroq, o'ziga majburiy belgi sifatida faqat harakat yoki harakatsizlik emas, balki harakat (harakatsizlik) bilan kelib chiqqan zararli oqibat o'rtasidagi natija va sabab bog'lanishini qamrab oladi. Bunday huquqbuzarlik, masalan, olov bilan ehtiyotsiz munosabatda bo'lish natijasida o'rmonning yo'q qilinishi yoki shikastlantirilishidan iboratdir. Bu yerda daraxtlarning yo'q qilinishi shakli o'rmon xo'jaligiga yetkazilgan zarar oqibatida namoyon bo'ladi.

Ma'muriy huquqbazarliklarning rasmiy tarkiblarida qasddan sodir etilgan ayb shaxsning g'ayrihuquqiy tarzda harakat yoki harakatsizlik sodir etganligini, ya'ni ularning noqonuniy ekanligini anglab yetganligidan iborat bo'ladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning Maxsus qismidagi ayrim moddalarda g'ayrihuquqiy xatti-harakatlar sodir etishdan ogohlantirish, tegishli qoidalar va yo'riqnomalarning talablariga qat'iy rioya qilish zarurligi eslatib o'tiladi. Mehnatga Ma'muriy majbur qilish bunga misoldir. U yoki bu xatti-harakatlarni sodir etish qaysi organ tomonidan qachon taqiqlanganini huquqbazar aniq bilishi talab qilinmaydi. Xuddi shuningdek, uning huquqbazarlik uchun qanday jazo berilishi mumkinligini aniq bilishi ham shart emas.

Aksariyat hollarda sodir etilgan qasddan qilingan harakatning g'ayrihuquqiy ekanligini anglab yetish masalasi qo'yilmaydi, chunki gap odatda yaqqol yo'l qo'yilmaydigan harakatlar to'g'risida boradi, ularning g'ayrihuquqiy ekanligidan aholi keng xabardor etiladi.

Ma'muriy nojo'ya xatti-harakatlarning moddiy tarkiblarida qasddan sodir etilgan ayb qilingan harakat yoki harakatsizlikning g'ayrihuquqiy ekanligini anglab yetishdan tashqari huquqbuzarning kelib chiqqan zararli oqibatlarga munosabatini ham o'z ichiga oladi. Shaxs bu oqibatlarni oldindan ko'ra biladi va xohlaydi yoki ularning sodir bo'lishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi. Aytish mumkinki, oqibatlarni oldindan ko'ra bilish g'arazli niyatning faol jihatini ifodalaydi, zararli oqibatlarning boshlanishini istash yoki unga yo'l qo'ymaslik ixtiyoriy jihatni anglatadi.

Ixtiyoriy jihatga bog'liq ravishda bevosita g'arazli niyat va bavosita g'arazli niyat farqlanadi. Bevosita g'arazli niyatda shaxs oqibatlarning kelib chiqishini istaydi, bilvosita g'arazli niyatda esa u faqat oqibatlarning boshlanishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi. Muayyan Ma'muriy huquqbazarlik tarkibiga (shaxs bu huquqbazarlikni sodir etgani uchun Ma'muriy javobgarlikka tortiladi) kiradigan oqibatlarni oldindan ko'ra bilish bilan ham, shuningdek istak yoki yo'l qo'yish bilan ham qamrab olinishi lozim. Masalan, shaxs mayda o'g'rilik qilganda, o'zining ozroq miqdordagi mulkni eng kam ish haqining bir miqdoridagi

ana shu mulkni bepul, g‘arazli maqsad bilan egallab olayotganini anglab yetadi, buning natijasida mulkchilikning shakllaridan qat’i nazar, korxonaga, muassasaga, tashkilotga shunday zarar yetayotganini oldindan ko‘ra biladi va shuni xohlaydi.

Ehtiyotsizlik orqasida qilingan ayb qasddan sodir etilgan ayb singari Ma’muriy huquqbuzarlikning eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan g‘ayrihuquqiy harakat qasddan sodir etilgan xuddi shunday harakatga nisbatan kamroq jiddiy huquqbuzarlik hisoblanadi.

Ma’muriy huquqbuzarlikni ehtiyotsizlik orqasida sodir etish quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

a) o‘ziga ishonish – shaxsning o‘z harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko‘ra bilgan bo‘lsa ham, lekin kaltabinlik bilan ularning oldini olish mumkin deb o‘ylaydi;

b) beparvolik – shaxsning qonunda ko‘rsatilgan oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko‘ra bilishi lozim va mumkin bo‘lgani holda ularni oldindan ko‘ra bilmagani. Ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan ayb Ma’muriy huquqbuzarliklarning moddiy tarkiblariga tatbiqan belgilanadi va huquqbuzarning faqat o‘z harakati oqibatlariga munosabati bilan bog‘lanadi.

Rasmiy nojo‘ya xatti-harakatni sodir etishda, ya’ni kelib chiqqan zararli oqibatlardan qat’i nazar, tugallangan deb hisoblanadigan xatti-harakatni sodir etishda ehtiyotsizlik bilan qilingan ayb nimada ifodalanishi to‘g‘risida bu modda bevosa ko‘rsatmalar bermaydi. Biroq moddaning mazmunidan va uning oldingi, ya’ni qasddan qilingan ayblarni qarab chiquvchi modda bilan qiyoslashdan shunday xulosa chiqarish mumkin: rasmiy nojo‘ya xatti-harakatlarda ehtiyotsizlik bilan qilingan ayb shundan iboratki, shaxs u yoki bu harakatni sodir etar ekan, odatda, uning g‘ayrihuquqiy ekanligini anglab yetmaydi, lekin, u buni anglab yetishi lozim va mumkin edi. Shaxs o‘z harakatining g‘ayrihuquqiy ekanligini, u Ma’muriy tartibda jazolanishini anglab yetishi lozim va mumkin edi, degan xulosani ishning aniq holatlarini va

huquqbuzarning subyektiv imkoniyatlarini hisobga olgan holda chiqarish mumkin.

Ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan aybning ikki shakli: ortiq darajada o‘ziga ishonish – bu shaxsning o‘z harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko‘ra bilgan bo‘lsa ham, lekin yengiltaklik bilan ularning oldini olish mumkin deb o‘ylashi va beparvolik – shaxsning qonunda ko‘rsatilgan oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko‘ra bilishi lozim va mumkin bo‘lgani holda ularni oldindan ko‘ra bilmagani bilan farqlanadi.

O‘ziga ortiq darajada ishonganda shaxs o‘z harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko‘ra bilgan bo‘lsa ham, ularning oldini olish mumkin deb o‘laydi. Bunda u muayyan real imkoniyatlardan kelib chiqadi. Shunday holatga umid qiladi, ya’ni shaxs o‘zining va boshqalarning kuchi, bilimi va tajribasiga, tabiat kuchlariga va shu kabilarga ishonadi. Masalan, u shunday vaziyatda, chunonchi, transport vositasini boshqarishni uni boshqarish huquqiga ega bo‘lmagan shaxsga berar ekan, o‘zining katta tajribasi va harakatning unchilik tez emasligi bilan u avariya holatining oldini olish mumkin deb hisoblaydi. Basharti bunday avariya holati kelib chiqadigan bo‘lsa, haydovchi o‘ziga ortiq darajada ishonishidan kelib chiqqan zararli natija uchun javobgar bo‘ladi.

Beeparvolikda huquqbuzar zararli oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko‘ra bilmaydi. Ko‘pincha bu hol shu narsa bilan bog‘liq bo‘ladiki, huquqbuzar o‘zi amalga oshirgan harakat nimalarga olib kelishi mumkinligini o‘ylab ko‘rmaydi.

Shaxs o‘zining harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko‘ra bilishi lozimligini aniqlab olish uchun u mavjud obyektiv shart-sharoitlarni bilishi zarur bo‘ladi.

Zararli oqibatlarni oldindan ko‘ra bilishga shaxsning bajaradigan xizmat vazifalari xususiyatlari va yashash qoidalari, masalan, olov bilan ehtiyotsizlarcha munosabatda bo‘lishi natijasida o‘rmonning yo‘q bo‘lishi yoki shikastlanishi vaqtidagi xizmat vazifalari va xususiyatlari hamda yashash qoidalari talablari bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Shaxs kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni oldindan ko‘ra bilishi lozim emasligi ma’lum bo‘lgan hollarda uning Ma’muriy javobgarligi haqidagi masalaga o‘rin qolmaydi va shaxs bu oqibatlarni oldindan ko‘ra bilishi lozim yoki lozim emasligini aniqlashga ehtiyoj bo‘lmaydi.

Agar shaxs zararli oqibatlar kelib chiqishini oldindan ko‘ra bilishi lozim bo‘lsa, uning bu ishni qila olishini aniqlash talab etiladi. Bu haqda to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun huquqbuzar shaxsning muayyan o‘ziga xos xususiyatlarini: uning hayotiy tajribasini, ma’lumotini, kasbini, ish stajini, ko‘nikmalarini, salomatligi hollarini, ruhiyatini, shaxs harakat qilgan vaziyatni va hokazolarni hisobga olish kerak bo‘ladi.

Ehtiyotsizlik bilan qilingan aybdan shaxs javobgar bo‘lmaydigan chigal ish yoki hodisani farqlash kerak. Bu keyingi holat uchun shaxs amalga oshirgan harakat natijasida kelib chiqqan zararli oqibatlarni oldindan ko‘ra bilishi lozim va mumkin emasligi xosdir. Bu holatlarga transportdagi Ma’muriy huquqbuzarlik to‘grisidagi ishlarni ko‘rib chiqish vaqtida duch kelish mumkin.

4-§. Ma’muriy javobgarlik subyektlari klassifikatsiyasi (fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lidan shaxslar, mansabdar shaxslar, voyaga yetmagan shaxslar va harbiy xizmatchilar va intizom ustavlari tatbiq etiladigan boshqa shaxslarning ma’muriy javobgarligi)

Fuqaro Ma’muriy-huquqiy munosabatlarning qatnashchisi bo‘lganligi sababli Ma’muriy huquq subyektlaridan biri hisoblanadi.

Davlat boshqaruvida fuqarolarning huquqiy holati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunda va shu qonunga muvofiq chiqarilgan boshqa qonun hujjatlarida ifodalangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasiga asosan barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra davlat boshqaruvi sohasida fuqarolar quyidagi huquqlarga egadirlar:

1) hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas (25-modda);

2) jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Hech kim qiyonoqqa solinishi,

zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagи tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas (26-modda);

3) har kim o‘z sha’ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joy daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim qonunda nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o‘tkazishi yoki uni ko‘zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so‘zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas (27-modda);

4) O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, O‘zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir (28-modda);

5) har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo‘lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin (29-modda);

6) O‘zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabдор shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim (30-modda);

7) O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqlariga ega. Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish,

referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo‘li bilan amalga oshiriladi (32-modda);

8) o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkazish shaklida amalgamoshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtayi nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega (33-modda);

9) kasaba kompaniyalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kansitishi mumkin emas (34-modda);

10) har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi shart (35-modda);

11) har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega (40-modda);

12) har kim bilim olish huquqiga ega (41-modda). O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarining huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga, O‘zbekiston xalqining tarixi, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga, atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga, soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga, mamlakatni himoya qilishga majburdirlar (48–51-moddalar).

Davlat boshqaruvida fuqarolarning Ma’muriy holati 1992-yil 2-iyuldagagi 632-XII-son “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunda ham qayd etilgan bo‘lib, unda fuqarolarning quyidagi Ma’muriy holatlari ko‘rsatilgan:

1) fuqarolarning teng huquqliligi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy turmushning barcha sohalarida ta’minlanadi;

2) mansabdor shaxslarning fuqarolik masalalariga oid arizalarni qabul qilishdan asossiz bosh tortganlik, arizani ko‘rib chiqish muddatlari buzilganlik, shuningdek mansabdor shaxslarning fuqarolik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish tartibini va fuqarolik masalalariga oid qarorlarni ijro etish tartibini buzadigan boshqa nohaq xatti-harakatlari xususida ular bo‘ysunadigan yuqori mansabdor shaxsga yoki sudga qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Davlat boshqaruvi sohasida fuqarolarning huquq va burchlari hamda mansabdor shaxslarning majburiyatları va javobgarliklari Ma’muriy qonunchilik bilan belgilanadi. Shaxs tug‘ilgan kunidan boshlab, umrining oxirigacha Ma’muriy-huquqiy munosabatlarda qatnashish huquqiga ega.

Fuqaroning Ma’muriy yuridik salohiyati o‘ziga berilgan huquqdan foydalana olishi va zimmasidagi burchlarini bajarishi qonunda ko‘rsatilgan yoshga yetgandagina qisman 16 yoshdan, to‘liq 18 yoshdan boshlanadi.

Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi. Har bir shaxsning o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishi, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilishi kafolatlanadi. Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir. Davlat boshqaruvi sohasida qatnashuvchi fuqarolar, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir. Ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda o‘n olti yoshga to‘lgan shaxslar Ma’muriy javobgarlikka tortiladi.

Ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar to‘g‘risidagi nizomda nazarda tutilgan choralar qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagи PQ-2833-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar to‘g‘risida”gi nizomning 22 va 23-bandida bu borada aytib o‘tilgan.

Tuman (shahar) komissiyalari zimmasiga: o'n to'rt yoshga to'lmasdan jamiyat uchun xavfli xatti-harakatlar sodir etgan, o'n uch yoshga to'lgandan keyin og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirgan voyaga yetmaganlar bundan mustasno; o'n to'rt yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan davrda ular uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, jamiyat uchun xavfli xatti-harakatlar sodir etgan;

o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan davrda jinoyat alomatlari bo'lgan xatti-harakatlar sodir etib, ularga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atish rad qilingan yoki jinoiy ish to'xtatilgan;

o'n olti yoshgacha bo'lgan davrda yo'l harakati qoidalarini buzgan; boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan;

o'rtalik, o'rtalik maxsus va kasb-hunar ta'llimi ta'lim muassasalarida (umumta'llim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida) o'qishdan bosh tortgan;

jamiyat uchun katta xavfli bo'limgan jinoyatni birinchi-marta sodir etganida tergovchi yoki prokurorning qarori yoxud sud ajrimi asosida javobgarlikdan ozod qilingan;

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan tartibda Ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etgan voyaga yetmaganlar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish yuklanadi (nizomning 22-bandi).

Tuman (shahar) komissiyalari ushbu nizomning 22-bandida nazarda tutilgan hollarda voyaga yetmaganlarga nisbatan quyidagi ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llashlari mumkin:

voyaga yetmaganga jabrlanuvchidan uzr so'rash majburiyatini yuklash to'g'risida tuman (shahar) sudiga taqdimnomma kiritish;

ogohlantirib qo'yish;

o'n besh yoshga to'lgan voyaga yetmagan zimmasiga, agar u mustaqil ish haqiga ega bo'lsa va zarar miqdori belgilangan eng kam oylik ish haqidan ortiq bo'lmasa yetkazilgan moddiy zararning o'rnini qoplash yoki uni bartaraf etish majburiyatini yuklash yoki belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdoridan ortiq bo'limgan moddiy zararni o'z mehnati bilan qoplash majburiyatini yuklash to'g'risida tuman (shahar) sudiga taqdimnomma kiritish;

o‘n olti yoshga to‘lgan va mustaqil ish haqiga ega bo‘lgan voyaga yetmaganga O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida nazarda tutilgan hollarda va miqdorlarda jarima solish;

voyaga yetmaganni o‘z ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar yoxud jamoat tarbiyachilari nazoratiga, shuningdek ularning roziligi bilan mehnat jamoasi yoki nodavlat notijorat tashkilot kuzatuviga topshirish;

voyaga yetmaganni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to‘g‘risida sudga iltimosnomaga yuborish.

Har bir aniq holat bo‘yicha qabul qilingan ta’sir ko‘rsatish choralari to‘g‘risida komissiyalar voyaga yetmaganning yashash, o‘qish yoki ish joyi bo‘yicha huquqbazarliklarning profilaktikasi bo‘linmalari tomonidan voyaga yetmaganlar o‘rtasida yakka tartibda profilaktika o‘tkazilishini ta’minlash uchun ichki ishlar tegishli hududiy organlarini xabardor qilishga majbur.

Tuman (shahar) komissiyalari voyaga yetmaganlarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan, voyaga yetmagan shaxsni saqlash, tarbiyalash va o‘qitish bo‘yicha o‘z vazifalarini bajarishdan bosh tortganligi yoki o‘z vazifalarini zarur darajada bajarmaganligi yoxud voyaga yetmaganlarning xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatganligi yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo‘lganligi uchun, shu jumladan voyaga yetmaganlarni huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishga jalb qilganligi uchun, shuningdek voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilganligi uchun quyidagi ta’sir ko‘rsatish choralarini qo‘llashi mumkin:

jamoat tanbehi berish;

ogohlantirib qo‘yish;

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida belgilangan miqdorlarda jarima solish;

favqulodda hollarda, bolaning hayotiga yoki sog‘lig‘iga bevosita xavf solinganda ish sud tomonidan hal etilguniga qadar bolani vaqtincha

ota-onasidan yoki bola ularning vasiyligida bo‘lgan boshqa shaxslardan olib qo‘yish to‘g‘risida vasiylik va homiylik organlariga iltimosnoma kiritish.

Komissiya ota-onalarning muomala layoqatini cheklangan deb topish, ularni ota-onalik huquqidan mahrum etish, bolalarni ota-onalaridan ularni ota-onalik huquqidan mahrum etmasdan olib qo‘yish, shuningdek agar bolalarning ota-onalari ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo‘lib, shu bolalari bilan birgalikda yashashlari mumkin emas deb topilsa, ularni boshqa turar joy bermasdan ko‘chirib yuborish to‘g‘risida fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudiga da‘vo bilan murojaat qilish huquqiga ega (nizomning 24-bandı).

Voyaga yetmaganlarni ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalariga yuborish komissiyaning iltimosnomasi asosida chiqarilgan jinoiy ishlar bo‘yicha tuman (shahar) sudining ajrimi bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin (nizomning 25-bandı).

Tuman (shahar) komissiyalari o‘z bolalarini tarbiyalashga noto‘g‘ri munosabatda bo‘layotgan yoki komissiya chiqargan qarorning bajarilishiga to‘sinqinlik qilayotgan ota-onalarga yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan ta’sir ko‘rsatish choralarini qo‘llash haqida, shuningdek bolalarning huquqbazarliklar qilishlari uchun sharoit yaratib berayotgan yoxud voyaga yetmaganlarni jinoyat va boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar qilishga undayotgan yoki jalb etayotgan shaxslarni javobgarlikka tortish to‘g‘risida tegishli davlat organlariga taqdimnoma kiritadilar (nizomning 25-bandı).

Ushbu nizomning 23-bandida nazarda tutilgan ta’sir ko‘rsatish choralarini qo‘llanilayotganda tuman (shahar) komissiyasi huquqbazarlikning xususiyatini va sabablarini, voyaga yetmaganning yoshini va uning hayot sharoitlarini, uning huquqbazarlik qilishda qay darajada ishtirok etganligini, shuningdek uning turmushidagi, ta’lim muassasasidagi va ishdagi xulq-atvorini albatta hisobga olishi lozim. Komissiyaning ogohlantirish berish to‘g‘risidagi qarori bir yil mobaynida amal qiladi. Agar ta’sir ko‘rsatish chorasi qo‘llanilgan voyaga yetmagan shu muddat ichida yangi huquqbazarlik sodir etmasa, ta’sir ko‘rsatish chorasi tugallangan hisoblanadi. Ta’sir ko‘rsatish

chorasini qo'llagan komissiya o'z qaroriga binoan agar ana shunday ta'sir ko'rsatish chorasi qo'llanilgan voyaga yetmagan namunali axloqi bilan o'zini ko'rsatsa, jazoni bir yil o'tmasdan ham bekor qilishi mumkin.

Komissiyaning voyaga yetmaganni o'z ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoxud jamoat tarbiyachilari nazoratiga yoki mehnat jamoasi, nodavlat notijorat tashkilot kuzatuviga topshirish to'g'risidagi qarorining amal qilish muddati, agar voyaga yetmagan o'zining namunali axloqi va ishga hamda o'qishga bo'lgan halol munosabati bilan o'zining tuzalganligini isbot etsa, mazkur shaxslar yoki tashkilotlar iltimosnomasiga binoan istalgan vaqtida bekor qilinishi mumkin.

Tanlab olingan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish chorasi voyaga yetmaganga ta'sir qilmagan taqdirda komissiya bunday voyaga yetmaganga nisbatan ushbu nizomning 23-bandida ko'rsatilgan ta'sir ko'rsatish choralaridan qattiqrog'ini qo'llashga haqlidir (nizomning 27-bandi).

Tuman (shahar) komissiyasining jarima solish to'g'risidagi qarori shu qaror topshirilgan kundan boshlab o'n besh kun mobaynida ana shunday jarima solingan shaxs tomonidan to'lanishi lozim, bunday qaror ustidan shikoyat yoki protest berilgan taqdirda esa mazkur shikoyat yoki protest qondirilmaganligi haqida ma'lumotnomma olingan kundan boshlab o'n besh kundan kechiktirmay to'lanadi.

O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar mustaqil ish haqiga ega bo'lmasa, jarima ularning ota-onasidan yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslardan undirib olinadi.

Komissiyaning qarori bilan solingan jarima tegishli bank muassasasiga to'lanadi.

Jarima muddatida to'lanmagan taqdirda komissiyaning jarima solish to'g'risidagi qarori jarima summasini sud hujjatlarini va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga muvofiq jarima solingan shaxsning ish haqidan yoki boshqa maoshidan, pensiyasi yoki stipendiyasidan majburiy tartibda ushlab qolish uchun yuboriladi.

Agar jarima solingan shaxs ishlamayotgan bo‘lsa yoki solingan jarimani boshqa sabablarga ko‘ra uning ish haqidan yoki boshqa maoshidan, pensiyasi yoki stipendiyasidan undirib olishning iloji bo‘lmasa, jarima komissiyaning jarima solish to‘g‘risidagi qarori asosida undiruvni huquqbuzarning mol-mulkiga, shuningdek uning umumiy mulkdagi ulushiga qaratish yo‘li bilan sud ijrochisi tomonidan undirib olinadi.

Voyaga yetmaganlar ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘n besh yoshga yetgungacha, ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlarida esa o‘n sakkiz yoshgacha yetgungacha saqlanadilar.

Favqulorra hollarda bunday o‘quvchilarni ixtisoslashtirilgan maktablarda saqlash muddati ular o‘n olti yoshga yetgungacha uzaytirilishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalarida axloqan tuzalgunlarigacha saqlanadilar, lekin bu muddat uch yildan ortiq bo‘lmasligi kerak.

Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari joylashgan joydagi tuman (shahar) komissiyasi o‘quvchiga ko‘rsatib o‘tilgan muassasalarda joriy o‘quv yilida o‘rta umumta’lim maktabi yoki kasb-hunar kollejining tegishli sinfini tugallagungacha uch yil muddat o‘tgandan keyin ham qolishga ruxsat berishi mumkin.

Ixtisoslashtirilgan maktablarning o‘n besh yoshga to‘lgan, ammo axloqan tuzalmagan o‘quvchilari shu maktablar joylashgan joydagi tuman (shahar) komissiyasi tomonidan ixtisoslashtirilgan maxsus kasb-hunar kollejlariga yuborilishi mumkin.

Voyaga yetmaganlarning ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalarida bundan keyin bo‘lishlarining maqsadga muvofiq-nomuvofiqligi masalasi vaqtি-vaqtি bilan, lekin yiliga kamida bir marta shu muassasalar joylashgan joydagi tuman (shahar) komissiyalari tomonidan, mazkur komissiyalarning o‘z tashabbusi bilan, ana shu muassasalar Ma’muriyatlarining taqdimnomasi yoki voyaga yetmaganlarning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar iltimosnomasiga binoan ko‘rib chiqiladi (nizomning 29-band).

Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalariga jismoniy nuqsonlari, ushbu muassasalarda saqlash, tarbiyalash va o‘qitishga to‘sinqinlik qiluvchi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan kasalliklar ro‘yxatiga kiritilgan kasalliklari bo‘lgan voyaga yetmaganlarning joylashtirilishi mumkin emas.

Voyaga yetmaganning ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasasida bo‘lishi pedagoglar kengashining shu muassasa rahbari tomonidan tasdiqlangan qarori asosida mazkur muassasa joylashgan joydagi tuman (shahar) komissiyasining qarori bilan to‘xtatiladi, bu haqida voyaga yetmagan shu muassasadan chiqqunga qadar kamida bir oy oldin uning yashab turgan joyidagi komissiyaga xabar beriladi, komissiya voyaga yetmaganni ishga joylashtirish yoki ta’lim muassasasiga yuborish hamda unga zarur moddiy-maishiy sharoitlar yaratish yuzasidan chora-tadbirlar ko‘rishi shart.

Agar voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasasidan, yetim bolalar va ota-onas qarovisiz qolgan bolalar uchun mo‘ljallangan ta’lim muassasasidan chiqarilganidan keyin, uni ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar qonunda belgilangan tartibda ota-onalik yoki vasiylik huquqlaridan mahrum etilganligi tufayli ular huzuriga yuborish mumkin bo‘lmasa, shuningdek uning avvalgi istiqomat joyiga kelishi bir qancha sabablarga ko‘ra (ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar yo‘qligi, turmushi va mehnat qilishi hamda bundan keyin tarbiyalanishi uchun qulay sharoitlar yo‘qligi sababli) mumkin bo‘lmasa, ushbu muassasa joylashgan joydagi tuman (shahar) komissiyasi voyaga yetmaganni mazkur shaxsning maishiy yashash sharoitini yaxshilash, uni o‘qish yoki ishga joylashtirish chora-tadbirlarini ko‘radi. Zarur hollarda tuman (shahar) komissiyasi voyaga yetmagan shaxsga vasiy, homiy tayinlash to‘g‘risidagi taqdimnomalar bilan tegishli tuman (shahar) hokimligiga murojaat qilishga haqli.

Ushbu masalalarni hal qilishda mazkur bandda ko‘rsatilgan muassasalar joylashgan joydagi tuman (shahar) komissiyasi voyaga yetmagan ilgari yashab kelgan joydagi yoki uning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar turgan joydagi komissiyaning tegishli xulosasini olishi lozim.

Tarbiya koloniyasidan ozod bo‘lgan voyaga yetmagan istiqomat qilayotgan joydagi komissiya u o‘n sakkiz yoshga yetgungacha uni ishga yoki o‘qishga joylashtirish choralarini ko‘radi va uning axloqini nazorat qilib boradi.

Ozod bo‘lgan voyaga yetmaganning o‘z ota-onasi yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslar huzuriga qaytishiga ularning yo‘qligi yoxud ota-onalik huquqidan yoki vasiylik huquqidan mahrum etilganligi munosabati bilan imkon bo‘lmasa, ozod bo‘lgan voyaga yetmaganning ilgari yashab kelgan joyidagi komissiya tarbiya koloniysi Ma’muriyatining taqdimnomasiga binoan uni ixtisosiga muvofiq keladigan ishga yoki o‘qishga joylashtirish, shuningdek unga tegishli uy-joy, maishiy sharoitlar yaratish chora-tadbirlarini ko‘radi.

Tarbiya koloniyasidan ozod bo‘lgan voyaga yetmaganni tarbiyaviy mulohazalar sababli ilgarigi istiqomat joyiga yuborish maqsadga muvofiq emas deb topilgan favqulodda hollarda uni ishga joylashtirish tarbiya koloniysi Ma’muriyatining taqdimnomasiga binoan shu tarbiya koloniysi joylashgan joydagi komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Komissiya tarbiya koloniyasidan ozod bo‘lgan voyaga yetmaganni u yordam so‘rab murojaat qilgan kundan boshlab o‘n kun muddatdan kechiktirmay joylashtirish masalasini hal qilishi shart.

Ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslar Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 61, 116¹, 116², 116³, 125, 125¹, 126, 127, 128, 128¹, 128², 128³, 128⁴, 128⁵, 128⁶, 129, 130, 131, 132, 133, 134, 135, 135¹, 136, 138, 183, 185, 194, 209¹, 218, 220, 221-moddalarida nazarda tutilgan Ma’muriy huquqbazarliklarni sodir etgan taqdirda ular umumiy asoslarda Ma’muriy javobgarlikka tortiladi. Sodir etilgan huquqbazarlik xususiyatini va huquqbuzarning shaxsini hisobga olgan holda mazkur shaxslarga nisbatan (Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 194-moddasida nazarda tutilgan huquqbazarlikni sodir etgan shaxslar bundan mustasno) ishlar voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha tuman (shahar) idoralararo komissiyalari ixtiyoriga berilishi mumkin, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 61-moddasida nazarda

tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarning ishlari esa shu komissiyalarga berilishi lozim.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 15-moddasida mansabdar shaxslarning Ma'muriy javobgarligi berilgan bo'lib, mansabdar shaxslar boshqaruv tartibini, davlat va jamoat tartibini saqlash, tabiiy muhitni, aholi sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida belgilangan qoidalarga va bajarilishini ta'minlash o'z xizmat vazifalariga kiradigan boshqa qoidalarga rioya etmaganlik bilan bog'liq Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun Ma'muriy javobgarlikka tortilishlari lozim.

Doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, Ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, Ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs mansabdar shaxs deb e'tirof etiladi.

Davlatning biron-bir hokimiyat organi nomidan ish ko'rib, muayyan vazifalarni doimiy yoki vaqtincha amalga oshiruvchi va o'z vakolatlari doirasida ko'pchilik yoxud barcha fuqaro yoki mansabdar shaxslar uchun majburiy bo'lgan harakatlarni sodir etish yoki farmoyishlar berish huquqiga ega bo'lgan shaxs hokimiyat vakili deb e'tirof etiladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 16-moddasida ta'kidlanishicha, harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar Ma'muriy huquqbuzarlik uchun intizom ustavlariga muvofiq javobgar bo'ladi. Mazkur shaxslar yo'llar harakati qoidalari, ov qilish, baliq tutish va baliq zaxiralarini saqlash qoidalari, bojxona qoidalari buzganliklari uchun umumiylashtirish asoslarda Ma'muriy javobgar bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan Ma'muriy qamoqqa olish choralarini qo'llanilishi mumkin emas. Muddatli

harbiy xizmat o‘tayotgan harbiy xizmatchilariga jarima solinishi mumkin emas.

16-moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar jumlasiga kirmaydigan, intizom ustavlari yoki intizom to‘g‘risidagi maxsus qoidalari tatbiq etiladigan boshqa shaxslar, ana shu ustav yoki qoidalarda to‘g‘ridan to‘g‘ri nazarda tutilgan hollarda, Ma’muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun intizomiy javobgar bo‘ladi, boshqa hollarda esa umumiylashtirilgan shaxslarning ma’muriy javobgar bo‘ladi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 17¹-moddasida maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo‘l harakati qoidalari buzganlik uchun shaxslarning ma’muriy javobgarligi belgilangan bo‘lib, maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali yo‘l harakati qoidalari buzilganligi qayd etilgan taqdirda ma’muriy javobgarlikka transport vositasining mulkdori tortiladi.

Yuridik shaxsga tegishli transport vositasidan foydalanib sodir etilgan yo‘l harakati qoidalari buzilganligi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan taqdirda, ma’muriy javobgarlikka yuridik shaxsning transport vositasidan foydalanish uchun mas’ul bo‘lgan shaxsi tortiladi.

Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali yo‘l harakati qoidalari buzilganligi qayd etilgan taqdirda, huquqbuzarlikning takroriyligi hisobga olinmaydi, ushbu kodeksning 321-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan hol bundan mustasno.

Agar ma’muriy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror ustidan berilgan shikoyatni ko‘rib chiqish jarayonida tegishli transport vositasiga huquqbuzarlik qayd etilgan paytda egalik qilgan shaxs aniqlansa yoxud mazkur transport vositasi boshqa shaxslarning g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlari natijasida transport vositasi mulkdorining egaligidan chiqib ketganligi aniqlansa, transport vositasining mulkdori o‘ziga tegishli transport vositasidan foydalanib sodir etilgan, maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali

qayd etilgan yo‘l harakati qoidabuzarliklari uchun ma’muriy javobgarlikdan ozod etiladi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ham O‘zbekiston fuqarolari kabi bir xil huquq va burchlarga ega. Shu bilan birga, ular ayrim huquqlardan foydalana olmaydi. Jumladan, davlat boshqaruvida rahbarlik lavozimlarini egallay olmaydilar, armiya safida xizmat qilmaydilar.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 17-moddasida ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning ma’muriy javobgarligi nazarda tutilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar umumiylasoslarda ma’muriy javobgarlikka tortilishlari lozim.

Immunitetga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan ushbu kodeksning O‘zbekiston Respublikasi qatnashchi bo‘lgan xalqaro shartnomalar va bitimlarga zid bo‘lmagan qismi qo‘llaniladi.

Fuqarolarning o‘z huquqlaridan to‘g‘ri foydalanishini hamda burchlarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida bajarishini asosan prokuratura, adliya, sud, ichki ishlar va davlat nazorati organlari nazorat qilib boradi. Boshqa organlarning rahbariyati ham o‘z vakolati doirasida ana shu masalalar bo‘yicha ish olib borishi shart.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar respublikada o‘rnatalgan tartib-qoidalarga, masalan, respublikada yashash, shuningdek O‘zbekiston hududidan tranzit yo‘li bilan o‘tish qoidalariiga rioya qilishlari kerak. Bu qoidalari buzilgan taqdirda aybdor shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 225-moddasiga asosan javobgarlikka tortiladilar.

O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’minlanadi. Ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilanadi.

“O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasida O‘zbekiston Respublikasi hududida yashab turgan holda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmagan va ayni paytda chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari ham bo‘lmagan

shaxslar fuqaroligi bo‘lmasan shaxslar deb hisoblanishi ta’kidlanadi. Shu Qonunning 15-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo‘lgan, lekin fuqaroligi bo‘lmasan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududida tug‘ilgan farzandi O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

5-§. Ma’muriy javobgarlik tushunchasi va xususiyatlari

Ma’muriy javobgarlik tushunchasi va belgilariga to‘xtalishdan oldin yuridik javobgarlikka to‘xtalib o‘tamiz. Huquqshunoslik fanida yuridik javobgarlik masalasi yuzasidan turli fikrlar mavjud. Ko‘pchilik mualliflar yuridik javobgarlikni ba’zan davlatning huquq talablarini bajarishga qaratilgan majburlov choralarini qo‘llashi deb tushunsalar, boshqa ba’zi bir olimlar unga amaldagi yuridik kategoriylar doirasida yondashib, yuridik javobgarlikni qo‘riqlovchi huquqiy munosabatlar, maxsus yuridik majburiyatlar yoki huquq normalari sanksiyalari ko‘rinishida talqin etadilar.

Yuridik javobgarlikning tabiatи va mazmunini aniq belgilash uchun, avvalo, javobgarlikning o‘zi nima degan savolga javob berish zarur. Javobgarlikni ikki ma’noda: pozitiv (ijobi) javobgarlik va retrospektiv javobgarlik ma’nosida tushunish mumkin. Agar pozitiv (ijobi) ma’nodagi javobgarlik mavjud hamda kelgusidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turishga qaratilgan bo‘lsa, retrospektiv javobgarlik, o‘z navbatida, o‘tmishga qaratilgan bo‘ladi, ya’ni u shaxsnинг yuridik majburiyatlarni bajarmasligi yoki huquqni buzganligi oqibatida yuzaga chiqadi. Jamiyatda javobgarlikning bu ikki turi o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Pozitiv javobgarlik qancha yuqori darajada bo‘lsa, huquq qoidalari ham shuncha mukammal bajariladi hamda retrospektiv javobgarlikka tortilish holatlari shuncha kam sodir bo‘ladi.

Yuridik javobgarlik – huquqbuzarga nisbatan huquq normalarida ko‘zda tutilgan sanksiyalar asosida davlatning majburlov choralarini qo‘llashi bo‘lib, bunda aybdor shaxs muayyan huquqlardan (shaxsiy, mulkiy, tashkiliy va hokazo) mahrum etiladi.

Yuridik javobgarlik quyidagi belgilari bilan xarakterlanadi:

- 1) yuridik javobgarlik davlat majburlov choralarini bilan bog‘liq;

2) yuridik javobgarlik huquqbazarlik bilan bog‘liq;

3) yuridik javobgarlik huquqbazar uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi (ozodlikdan, ota-onalikdan mahrum bo‘lish yoki sodir etilgan qilmishi uchun jarima to‘lash va hokazo);

4) huquqbuzarga nisbatan qo‘llaniladigan choralarning xarakteri va hajmi huquq normalarining sanksiyasida o‘rnatilgan bo‘ladi;

5) davlat tomonidan qo‘llaniladigan majburlov choralari huquqni qo‘llash faoliyati davomida tegishli vakolatli organlar tomonidan qonunda belgilangan tartibga va protsessual shakllarga amal qilgan holda olib boriladi.

Yuqoridagi xususiyatlari bilan yuridik javobgarlik siyosiy, axloqiy va boshqa javobgarliklardan farq qiladi.

Shaxsni javobgarlikka tortish masalasini hal etishda uning qilmishida huquqbazarlikning tarkibi mavjudligiga ahamiyat berish hal qiluvchi rol o‘ynaydi, ya’ni huquqqa qarshi qilmishning obyektiv va subyektiv tomonlarini obyekt va subyektlarni birgalikda bog‘lagan holda o‘rganish masalaning mazmunini ochib berishga, uni aniqlashtirishga va individuallashtirishga yordam beradi. Huquq buzilishining turlariga muvofiq yuridik javobgarlik ham to‘rt turga bo‘linadi: 1) jinoiy-huquqiy; 2) fuqarolik-huquqiy; 3) ma’muriy-huquqiy; 4) intizomiy-huquqiy javobgarlik. Bugungi kunda iqtisodiy munosabatlarning jadallahuvi zamirida qonun hujjatlarimizda javobgarlikning muqobil ko‘rinishlari, ya’ni moliyaviy javobgarlik, soliq javobgarligi ham uchrab turadi.

Jinoiy-huquqiy javobgarlik shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalash vazifalarini amalga oshiradi, ushbu obyektlarga tajovuz qilinganda jinoiy javobgarlik kelib chiqadi. Jinoyat kodeksi bilan himoyalananadigan obyektlarga tajovuz qilish jinoyat hisoblanadi va bundan tajovuz, ya’ni harakat yoki harakatsizlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanadi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik fuqarolarning mulkiy munosabatlari va bu munosabatlar bilan bog‘liq

mulkiy xarakterda bo‘lmagan shaxsiy munosabatlarga zarar yetkazganlik holatlarida belgilanadi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik Fuqarolik kodeksi, Yer kodeksi, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda qo‘llaniladi.

Ma’muriy huquqiy javobgarlik huquqiy munosabatlarning buzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ularga boshqaruvning o‘rnatilgan umumtartib qoidalarini bajarmaslik, masalan, yo‘l harakati qoidalarini va jamoat tartibini buzish, tabiatni muhofaza etishga qarshi harakatlar va boshqalar kiradi.

Ma’muriy-huquqiy javobgarlik bo‘yicha quyidagi jazo choralarini ko‘rsatish mumkin: jarima, ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashynoning haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish, ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashynoni musodara qilish, muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquq (transport vositasini boshqarish, ov qilish huquqi)dan mahrum etish, ma’muriy qamoqqa olish va chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish.

Intizomiy-huquqiy javobgarlikning belgilanish holatlari Mehnat kodeksida, ichki mexnat tartibi qoidalarida hamda maxsus nizomlarda nazarda tutiladi. Intizomiy-huquqiy javobgarlik mehnat va xizmat intizomini, harbiy va boshqa intizomni buzish bilan bog‘liq bo‘lib, ularga idoraning ichki tartib-qoidalarini buzish, ishga kech kelish yoki ishdan barvaqt ketish va shu kabi hollar kiradi.

Jinoiy va fuqarolik-huquqiy javobgarlikni belgilash umumyurisdiksiya sndlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ma’muriy va intizomiy-huquqiy javobgarlik ichki ishlar organlari, mansabdor shaxslar va tegishli vakolatga ega rahbar shaxslar (ma’muriyat) tomonidan amalga oshiriladi. Yuridik javobgarlikni belgilashning asosiy maqsadi jazolash emas, balki huquq umumiy maqsadlarining muayyan ifodasiga qaratilgan bo‘lib, ular ijtimoiy munosabatlarning mustahkamlanishi, tartibga solinishi va himoyasida o‘z ifodasini topadi. Bu maqsadlar, o‘z navbatida, huquqning tartibga

soluvchi (regulyativ) va qo‘riqlovchi funksiyalarining amalda bo‘lishini belgilaydi. Yuridik javobgarlikning asosiy funktsiyasi qonuniylik va huquq-tartibotni muhofaza qilishdan iborat. Muayyan huquqbuzarga nisbatan javobgarlikning qo‘llanishi birmuncha tor maqsadni, ya’ni aybdorni jazolashni ko‘zlaydi. Bu bilan davlat o‘zining majburlov choralarini amalga oshira turib, yana boshqa bir maqsadni ko‘zda tutadi bu maqsad kelajakda huquqbazarlikni sodir etishning oldini olishga yoki bu haqida ogohlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Majburlov choralari tushunchasi. Majburlov bu bo‘ysunuvchi subyektning irodasini rad etish va uning xulq-atvoriga tashqi ta’sir ko‘rsatish hisoblanadi. Majburlov – hokimiyatni amalga oshirishning asosiy usulidir.

Jamiyatda majburloving turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ta’sir etish O‘rnatilgan tartibning ko‘rsatmaning) bajarilmaganligi sababli hokimiyat subyektining irodasi buziladi. Hokimiyat subyekti irodasini qayta tiklash va bo‘ysunuvga erishish maqsadida ikkinchi subyektning irodasiga axloqiy, mulkiy, tashkiliy, jismoniy ta’sir ko‘rsatiladi. Majburlov orqali huquq tartibot, mulkchilik, fuqarolar va tashkilotlarning huquq va manfaatlari, ommaviy hokimiyatning normal faoliyat yuritishi ta’minlanadi. Jamiyatda majburloving turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ta’sir etish obyektiga qarab ruhiy, moddiy, tashkiliy va jismoniy ta’sir etishga bo‘linadi.

Majburlov choralari huquqning individual subyektlariga ham, jamoa subyektlariga ham qo‘llanilishi mumkin.

Huquqiy majburlov mazmuni va xususiyatlari. Huquqiy majburlov huquq tartibotni ta’minlashning asosiy usullaridan biri bo‘lib, qonunda belgilangan tartibda maxsus vakolatli davlat organi tomonidan huquqqa xilof xatti-harakatni sodir etgan huquqning aniq bir subyektiga nisbatan qo‘llaniladi.

Huquqiy majburloving turli choralarga va ko‘pgina o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi sababli ularni turli asoslarga ko‘ra tasniflash mumkin. Masalan, birinchi navbatda ular sud va suddan tashqari qo‘llaniladigan majburlov choralariga bo‘linadi.

Huquqiy majburlovda ma'muriy-huquqiy majburloving tutgan o'rni. Ma'muriy-huquqiy majburlov bu huquqiy majburloving alohida turi bo'lib, huquqqa xilof qilmishga nisbatan ommaviy hokimiyat subyektlari tomonidan Ma'muriy huquq me'yorlarida nazarda tutilgan majburlov choralarining qo'llanilishidir. Ma'muriy-huquqiy majburlov huquqiy tartibotni himoya qilishda, shuningdek huquqbazarliklarga qarshi kurashishda katta ahamiyatga egadir. Bu shu bilan izohlanadiki, ichki ishlar organlari, davlat inspeksiyalari va boshqa ijro hokimiyati subyektlari tegishli tartib va qoidalarga rioya etilishi ustidan doimo nazoratni olib borib, ularning har qanday buzilishiga darhol ta'sir ko'rsatishlari mumkin. Ma'muriy-huquqiy majburlov jamiyat tartibiga tajovuz qiluvchi qilmishni to'xtatish va unga barham berishni, ijtimoiy xavfli oqibatlarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslikni nazarda tutuvchi ko'pgina cheklov (ehtiyot) vositalarini ham o'z ichiga oladi.

Ma'muriy-huquqiy majburloving choralari. Ma'muriy ogohlantiruv choralari – majburiylik xususiyatiga ega bo'lgan choralar bo'lib, davlat boshqaruvi sohasida jamoat tartibi va xavfsizligini hamda boshqa zararli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan huquqbazarliklarni ogohlantirish maqsadida qo'llaniladi.

Ma'muriy ogohlantiruv choralari ishlab chiqarishda, yo'l-transport harakatida to'qnashuvlar (avariyalar), yong'inlarning oldini olish; aholining sanitariya-epidemiologiya, havo va temiryo'ldagi xavfsizligini ta'minlash; tabiiy ofatlarda va favqulodda holatlarda fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlash uchun qo'llaniladi.

Ma'muriy cheklov choralari – huquqqa xilof harakatlarni tugatish (to'xtatish) va uning zararli oqibatlarini bartaraf etish maqsadida qo'llaniladi. Bu choralar, ma'muriy ogohlantiruv choralari singari turli ko'rinishlarga ega bo'lib, davlat boshqaruving turli sohalarida ijro hokimiyati subyektlari tomonidan qo'llaniladi. Ma'muriy cheklov choralariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) huquqqa xilof harakatni to'xtatish to'g'risidagi talab;
- 2) Ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxsni ma'muriy tartibda ushlab turish;

3) atrofdagilar uchun xavfli bo‘lgan kasallikka duchor bo‘lgan shaxsni majburiy davolash;

4) yuqumli kasallik bilan og‘rigan bemorlarni vaqtincha ishdan chetlashtirish;

5) transport vositasining holati o‘rnatilgan talablarga javob bermaganida undan foydalanishni taqiqlash;

6) jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha o‘rnatilgan talablarga rioya etmagan holda amalga oshirilayotgan qurilish-ta’mirlash va boshqa ishlarni taqiqlash yoki cheklash;

7) bevosita jismoniy ta’sir ko‘rsatish;

8) ommaviy tartibsizliklarni va bir guruh shaxslarning noqonuniy harakatlarini to‘xtatish uchun maxsus vositalarni qo‘llash;

9) vakolatli shaxsning o‘qotar quolidan foydalanishi va boshqalar.

Ma’muriy qayta tiklov chorralari etkazilgan zararni qoplash, oldingi holatni tiklash maqsadida qo‘llaniladi. Shu sababli bu choralarining turi va hajmi ko‘p jihatdan huquqqa xilof harakat orqali yetkazilgan zarar hajmi va xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, qayta tiklov choralariga, o‘zboshimchalik bilan qurilgan bino va boshqa obyektlarni buzish, o‘zboshimchalik bilan egallab olingan turar joydan majburiy chiqarish, tashkilotdan qonunga zid ravishda olingan mol-mulkni olib qo‘yish, penyani undirish va h.k.lar kiradi.

Ma’muriy javobgarlik yuridik javobgarlikning alohida turi hisoblanadi. Bir vaqtning o‘zida ma’muriy javobgarlik ma’muriy-huquqiy majburloving ko‘rinishi bo‘lib, uning barcha xususiyatlariga egadir.

Ma’muriy javobgarlikka yuridik javobgarlikning barcha xususiyatlari ham xosdir. U huquqiy me’yorlar asosida o‘rnatiladi, shaxs tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik uchun qo‘llaniladi va vakolatli davlat organlari (mansabdor shaxslar) tomonidan o‘rnatilgan protsessual tartibda huquqiy me’yorlarda nazarda tutilgan sanksiyalarni qo‘llashda ifodalanadi.

Ma’muriy javobgarlik masalasi ko‘pgina huquqshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo‘lib, ularning aksariyati bu masalaga deyarli bir xil yondashgan: ma’muriy javobgarlik bu ma’muriy huquq

me'yorlari bilan tartibga solingan, ma'muriy huquqbazarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan vakolatli davlat organlari va mansabdar shaxslar tomonidan ma'muriy-protsessual tartibda ma'muriy jazoni qo'llashdir.

Ma'muriy javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

Birinchidan, ma'muriy javobgarlik qonunlar bilan ham, qonunosti hujjatlari bilan ham o'rnatiladi, ya'ni u o'zining me'yoriy-huquqiy asosiga egadir. Jinoiy javobgarlik faqat qonunlar bilan, intizomiy javobgarlik qonun va qonunosti hujjatlari bilan, moddiy javobgarlik mehnat va fuqarolik qonunchiligi bilan belgilanadi.

Ikkinchidan, ma'muriy javobgarlikning asosi ma'muriy huquqbazarlik hisoblanadi (qonun buzilishi va nojo'ya xatti-harakat ko'rinishida). Jinoiy javobgarlikda jinoyat, intizomiy javobgarlikda intizomiy nojo'ya xatti-harakat, moddiy javobgarlikda moddiy zarar yetkazish hisoblanadi.

Uchinchidan, ma'muriy javobgarlik subyekti sifatida fuqarolar va mansabdar shaxslar namoyon bo'ladi. Jinoiy javobgarlikda fuqarolar va mansabdar shaxslar, intizomiy javobgarlikda xodim (jamoa subyektlarining intizomiy javobgarligi yuridik adabiyotlarda munozarali bo'lib kelmoqda), moddiy javobgarlikda xodim (mehnat qonunchiligi bo'yicha), jismoniy shaxslar (fuqarolik qonunchiligi bo'yicha) subyekt bo'lishi mumkin.

To'rtinchidan, ma'muriy huquqbazarliklar uchun ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi. Jinoyat uchun jinoiy jazo, intizomiy nojo'ya xatti-harakat uchun intizomiy jazo, moddiy zarar yetkazish uchun mulkiy jazo qo'llaniladi.

Beshinchidan, ma'muriy javobgarlik qonun hujjatlariga binoan keng doiradagi davlat organlari (mansabdar shaxslar) tomonidan qo'llaniladi. Jinoiy javobgarlik sud organlari tomonidan, intizomiy javobgarlik yuqori turuvchi davlat organi (mansabdar shaxs) tomonidan moddiy javobgarlik sud organlari tomonidan qo'llaniladi.

Oltinchidan, ma'muriy javobgarlik sudlanganlik holatini yoki ishdan bo'shatishni yuzaga keltirmaydi, jinoiy javobgarlikda sudlanganlik yuzaga keladi, intizomiyda esa ishdan bo'shatish mumkin.

Yettinchidan, ma'muriy javobgarlikni qo'llash uchun bo'ysunuvning bo'lishi shart emas, intizomiy javobgarlikni qo'llashda esa bo'ysunuv mavjud bo'ladi.

Ma'muriy javobgarlik huquqbuzarning ongi va irodasiga (xulq-atvoriga) ta'sir etish darajasiga qarab quyidagilarga bo'linishi mumkin:

- 1) jismoniy ta'sir etishni nazarda tutuvchi ma'muriy javobgarlik;
- 2) moddiy ta'sir etishni nazarda tutuvchi ma'muriy javobgarlik;
- 3) ruhiy ta'sir etishni nazarda tutuvchi ma'muriy javobgarlik.

Ma'muriy javobgarlikni yuzaga keltiruvchi asoslarga ko'ra uning quyidagi turlarini ko'rsatish mumkin:

- 1) ma'muriy huquqbazarlik uchun qo'llaniladigan ma'muriy javobgarlik;
- 2) kam ahamiyatli qilmishlar uchun qo'llaniladigan ma'muriy javobgarlik.

Ma'muriy javobgarlikning bunday turlarga bo'linishi shartli hisoblanadi. Ba'zi huquqshunos olimlar ma'muriy javobgarlik turlari sifatida jazo choralarini, ba'zi birlari javobgarlik turlari turli asoslarga qarab bo'linishini (yuqorida ko'rib chiqqanimizdek) ta'kidlagan, uchinchilari esa ma'muriy javobgarlik turlariga umuman to'xtalib o'tmagan.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga asoslanib, huquqbazarlik subyektlariga ko'ra ma'muriy javobgarlikning quyidagi turlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- 1) voyaga yetmaganlarning ma'muriy javobgarligi;
- 2) mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligi;
- 3) xizmatchilar va intizom ustavlari tatbiq etiladigan boshqa shaxslarning ma'muriy javobgarligi;
- 4) xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning ma'muriy javobgarligi.

6-§. Ma'muriy jazo choralari tushunchasi, maqsadi va turlari

Ma'muriy jazo – ma'muriy huquqbazarliklar uchun O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va boshqa qonun hujjalarda belgilab qo'yilgan doirada va tartibda qo'llaniladi.

Ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi sanksiyalarda jazo chorasi va uning ruxsat etilgan me'yorlari (hajmi) ko'rsatib o'tiladi.

Ma'muriy jazoning maqsadi ma'muriy jazo javobgarlikka tortish chorasi bo'lib, u ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek ana shu huquqbuzarning o'zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Ma'muriy jazo choralari yordamida davlat huquqbuzar tomonidan ham, shuningdek, boshqa shaxslar tomonidan ham sodir etilgan huquqbuzarliklarni ogohlantirishni amalga oshiradi. Ma'muriy jazo choralarining pirovard maqsadi huquqbuzar ham, boshqa shaxslar ham ma'muriy huquqbuzarliklarni boshqa sodir etmasligidan iborat.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun quyidagi ma'muriy jazo choralari qo'llanilishi mumkin:

- 1) jarima;
- 2) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lган ashyni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish;
- 3) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lган ashyni musodara qilish;
- 4) muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum etish;
- 5) ma'muriy qamoqqa olish.
- 6) chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo'lмаган shaxslarni O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish.

Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lган ashyni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish va chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo'lмаган shaxslarni O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish ma'muriy jazo va choralari faqat O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanishi mumkin.

Ashyolarni ularning haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish, musodara qilish va maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan) mahrum etish ham asosiy, ham qo‘srimcha ma’muriy jazo tariqasida, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 23-moddasida nazarda tutilgan boshqa ma’muriy jazo choralar esa faqat asosiy jazo tariqasida qo‘llanilishi mumkin.

Bitta ma’muriy huquqbazarlik uchun yo asosiy yoki ham asosiy, ham qo‘srimcha jazo chorasi qo‘llanilishi mumkin.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 24-moddasi sodir etilgan Ma’muriy huquqbazarlik uchun javobgarlik choralarining birga qo‘sib tatbiq etilishi to‘g‘risidagi muhim qoidani o‘z ichiga oladi: muayyan Ma’muriy huquqbazarlik uchun yo asosiy, yoki asosiy bilan bitta qo‘srimcha Ma’muriy jazo chorasini qo‘llanish mumkin. Ma’muriy huquqbazarlikni sodir etganlik uchun asosiy jazo chorasi sifatida ushbu kodeks Maxsus qismining tatbiq etiladigan moddasi sanksiyasida ko‘rsatib o‘tilgan asosiy jazo choralaridan faqat bittasi tayinlanishi mumkin. Bir vaqtning o‘zida ikkita asosiy jazo chorasini qo‘llanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Jarima mulkiy xususiyatga ega bo‘lgan ma’muriy jazo chorasidir. U pul bilan ifodalanadigan jazo chorasi bo‘lib, huquqbuzardan davlat hisobiga muayyan miqdordagi pul mablag‘larini undirib olishni ifodalaydi.

Ma’muriy jarima ma’muriy huquqbazarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undirishdir.

Jarimaning miqdori ma’muriy huquqbazarlik sodir etilgan vaqtdagi davom etayotgan ma’muriy huquqbazarlik uchun esa bu huquqbazarlik aniqlangan vaqtdagi belgilab qo‘ylgan eng kam oylik ish haqidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Fuqarolarga solinadigan jarimaning eng kam miqdori eng kam ish haqining ellikdan bir qismi, mansabdor shaxslarga esa o‘ndan bir qismidan kam bo‘lmasligi kerak. Fuqarolarga solinadigan jarimaning eng ko‘p miqdori eng kam ish haqining besh baravaridan, mansabdor shaxslarga esa o‘n baravaridan oshmasligi kerak. Qonunlarda nazarda tutilgan ayrim hollarda ba’zi huquqbazarliklar uchun fuqarolarga eng

kam ish haqining yuz baravarigacha va mansabdor shaxslarga esa, yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solinishi mumkin. Mahalliy davlat hokimiyyati organlarining qarorlari bilan belgilanadigan jarimaning eng ko‘p miqdori MJtKning 6-moddasiga binoan fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravaridan, mansabdor shaxslarga esa besh baravaridan oshmasligi kerak.

Ma’muriy huquqbazarliklarning muayyan turlari uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normalar sanksiyalarida jarimaning miqdorlari huquqbazarliklarning ijtimoiy xavfllilik darajasidan kelib chiqib aniqlashtiriladi. Bunda jarima miqdorlari ma’muriy jazo chorasingning mazkur turi uchun belgilangan eng ko‘p va eng oz miqdordan oshib ketmasligi kerak. Kodeksning Maxsus qismi normalari nisbatan ko‘proq belgilangan sanksiyalarni o‘z ichiga oladi, unda eng ko‘p miqdor va kamroq hollarda esa jarimaning eng ko‘p va eng oz miqdori ko‘rsatiladi. Bu hol organga (mansabdor shaxsga) jarima miqdorini belgilashda sodir etilgan huquqbazarlikni va aybdorning shaxsini tavsiflovchi barcha holatlarni hisobga olish imkonini beradi.

Jarima ma’muriy jazo chorasingning asosiy turi hisoblanadi. U boshqa jazo choralarining o‘rniga tatbiq etilishi mumkin emas. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda jarima qo‘srimcha ma’muriy jazo chorasi bilan birgalikda solinishi mumkin (ashyoni haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish yoki musodara qilish).

Haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish va uning o‘ziga xos xususiyatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ma’muriy huquqbazarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashyni haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish va shu ashyni majburiy tarzda tortib olib, uni keyinchalik sotib yuborish hamda sotishdan tushgan pulni ashyoning sobiq egasiga tortib olingan ashyni sotish xarajatlarini chegirib tashlagan holda topshirishdan iboratdir.

Mazkur jazo chorasi mulkiy tarzdagi ma’muriy javobgarlik o‘lchovi bo‘lib, faqat ashylardan huquqbazarlikni sodir etish quroli yoki bevosita shunday narsa sifatida foydalangan ashylar egasiga nisbatangina qo‘llanilishi mumkin. Huquqbuzarga tegishli bo‘lmagan

ashyolarni (masalan, g‘ayriqonuniy ov qilish ashyolarini) haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish ma’muriy jazo chorasi hisoblanmaydi.

Mazmunan ashyoni haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish o‘zaro bog‘langan uchta harakatdan iborat.

Birinchidan, huquqbuzardan ashyoni majburan olib qo‘yish, ikkinchidan, bu ashyoni sotish, uchinchidan, sotishdan tushgan pulni ashyoning sobiq egasiga olib qo‘yilgan ashyoni sotish xarajatlarini chegirib tashlagan holda topshirish. Bunday olib qo‘yish haqini to‘lash sharti belgisi bo‘yicha boshqa ma’muriy jazo chorasi bo‘lgan huquqbazarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashyoni musodara qilishdan farq qiladi. Musodara qilinganda olib qo‘yilgan ashyolar davlat foydasiga ishlataladi.

Ashyoni haqini to‘lab olib qo‘yish ham asosiy, ham qo‘shimcha ma’muriy jazo chorasi sifatida qo‘llanilishi mumkin. U asosiy jazo chorasi tarzida faqat kodeksning 220-moddasi 1-qismida o‘qotar qurollar va o‘q-dorilarni saqlash yoki tashish qoidalarini buzganlik uchun jarima bilan muqobil tarzda nazarda tutilgan. Qo‘shimcha jazo chorasi sifatida haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish kodeksda xavfli moddalar va ashyolarni transportda tashish qoidalarini buzganlik uchun (142-moddaning 2-qismi) va o‘qotar ov qurollari va o‘q-dorilarni sotishdan bo‘yin tovlaganlik uchun (222-modda) belgilangan. Shu bilan birga, basharti birinchi huquqbazarlik uchun qonun chiqaruvchi ashyoni haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yishni qo‘shimcha jazo chorasi sifatida nazarda tutsa, ikkinchi huquqbazarlik uchun mazkur jazo chorasini, albatta, asosiy jazo chorasi bo‘lgan jarima bilan to‘ldiradi.

O‘qotar qurollar va o‘q-dorilarni haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish asosiy tirikchilik manbayi ovchilik bo‘lgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin emas.

Ashyoni haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish chorasini qo‘llanish tartibi va tortib olinadigan ashyolarning turlari MJtK va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan belgilab qo‘yiladi.

Bundan tashqari, ma’muriy huquqbazarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashyoni musodara qilish shu ashyoni haqini to‘lamasdan majburiy tarzda davlat mulkiga

o‘tkazishdan iborat bo‘lib, bu chora tuman (shahar) sudining ma’muriy ishlar bo‘yicha sudyasi tomonidan;

bojxona organlari tomonidan aktsiz markalari qo‘yilmagan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilganda, transportirovka (xalqaro tranzit bundan mustasno) qilinganda va saqlanganda, shuningdek eksport qilinishi man etilgan buyumlar va mahsulotlar O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga olib chiqib ketilayotgan hollarda soliq organlari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari tomonidan aktsiz markalari qo‘yilmagan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar saqlanganda, realizatsiya qilinganda, shuningdek yashirin ravishda ishlab chiqarilganda qo‘llaniladi. Basharti O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, faqat huquqbuzarning shaxsiy mulki bo‘lgan ashayogina musodara qilinishi mumkin.

Maxsus huquqdan mahrum etishga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositalarini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum qilish chorasi tuman (shahar) sudining ma’muriy ishlar bo‘yicha sudyasi tomonidan uch yilgacha muddatga qo‘llaniladi.

Bunday huquqdan mahrum qilish muddati o‘n besh kundan kam bo‘lmasligi kerak.

Nogironligi sababli transport vositalaridan foydalanadigan shaxslarga nisbatan transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum qilish chorasi qo‘llanilishi mumkin emas, MJtKning 128³-moddasi to‘rtinchchi qismida, 128⁴-moddasining uchinchi qismida, 131-moddasining birinchi qismida, 136-moddasining birinchi qismida nazarda utilgan ma’muriy huquqbazarliklar sodir etilgan hollar bundan mustasno.

Asosiy tirikchilik manbayi ovchilik bo‘lgan shaxslarga nisbatan ov qilish huquqidan mahrum etish chorasi qo‘llanilishi mumkin emas.

Ma'muriy jazo chorasingning yana bir turiga mma'muriy qamoqqa olish kiradi. Ma'muriy qamoqqa olish eng qattiq ma'muriy jazo chorasi hisoblanadi. U aybdorni ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqayotgan organ (mansabdar shaxs) belgilagan davrda ozodlikdan mahrum etishni, jamiyatdan ajratib qo'yishni bildiradi.

Ma'muriy qamoqqa olish uch sutkadan o'n besh sutkagacha muddatga, favqulodda holat tartibi sharoitida esa jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun o'ttiz sutkagacha muddatga qo'llaniladi. Ma'muriy qamoqqa olish tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi tomonidan, favqulodda holat tartibi sharoitida esa harbiy komendant yoki ichki ishlar organi boshlig'i tomonidan belgilanadi.

Ma'muriy qamoqqa olish chorasi homilador ayollarga, uch yoshgacha bolasi bo'lган ayollarga, o'n to'rt yoshgacha bo'lган bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxslarga, o'n sakkiz yoshta to'lman shaxslarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

Ma'muriy qamoqqa olish tartibi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 9-yanvardagi O'RQ-420-sonli "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi.

7-§. Ma'muriy jazo qo'llanilishining umumiy qoidalari

Ma'muriy huquqbazarlik uchun jazo ushbu kodeks va boshqa normativ hujjatlarda belgilab qo'yilgan doirada va tartibda qo'llaniladi. Jazoni qo'llanish chog'ida sodir etilgan huquqbazarlik xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, uning aybdorlik darajasi, mulkiy ahvoli, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar hisobga olinadi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2018-yil 30-noyabrdagi 35-son "Sudlar tomonidan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rishni tartibga soluvchi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 22-band).

Ma'muriy huquqbazarlik ishlarini ko'rib chiquvchi davlat organi (mansabdar shaxs):

birinchidan, ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi modda sanksiyasida ko'rsatib o'tilgan jazoni tayinlashi mumkin;

ikkinchidan, ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi modda sanksiyasida ko'rsatib o'tilgan qo'shimcha jazoni tayinlashi yoki tayinlamasligi mumkin;

uchinchidan, ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi modda sanksiyasida ko'rsatib o'tilgan jazoning quyi va yuqori hajmlari doirasidan kelib chiqqan holda qo'llashi mumkin.

Vakolatli davlat organi (mansabdor shaxs) jazoni qo'llash chog'ida sodir etilgan huquqbazarlik xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, uning aybdorlik darajasi, mulkiy ahvoli, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga olishi lozim.

O'zR MJtKning 31-moddasiga binoan ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarga quyidagilar kiradi:

Ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) aybdorning o'z qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi;

2) aybdorning huquqbazarlikning zararli oqibatlari oldini olishi, yetkazilgan ziyonni ixtiyoriy ravishda to'lashi yoki keltirilgan zararni bartaraf qilishi;

3) huquqbazarlikning kuchli ruhiy hayajon ta'siri ostida yoki og'ir shaxsiy, oilaviy yoxud boshqa sharoitlar yuzaga kelganligi oqibatida sodir etilishi;

4) huquqbazarlikning tahdid yoki majburlov ta'sirida yoxud xizmat yuzasidan, moddiy yoki boshqa jihatdan qaramligi ta'siri ostida sodir etilishi;

5) huquqbazarlikning voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilishi;

6) huquqbazarlikning homilador ayol yoki o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxs tomonidan sodir etilishi.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) boshqa holatlarni ham javobgarlikni yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkin.

Yuqorida qayd etib o‘tilganidek, ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqayotgan organ (mansabdar shaxs) boshqa holatlar bilan bir qatorda, javobgarlikni yengillashtiruvchi va shu sababli Kodeksning tegishli moddasi sanksiyasida nazarda tutilganidan yengilroq jazo chorasi qo‘llanish uchun asos beradigan holatlarni ham hisobga olishi lozim.

O‘zR MJtKning 31-modda javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarning olti turini nazarda tutadi va ular ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi ishni qarab chiquvchi organ (mansabdar shaxs) tomonidan ma’muriy jazo chorasi qo‘llanish vaqtida hisobga olinishi kerak.

Aybdorning o‘z qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lishi uning sodir etilgan xatti-harakatning g‘ayrihuquqiy ekanligini anglab yetganligini, huquqbazarlikka salbiy munosabatini, huquqbazarlikni tegishli organlarga (mansabdar shaxslarga) o‘z ixtiyori bilan ma’lum qilganligini, huquqbazarlikning sodir etilishi holatlari va sabablarini tushunganligini bildiradi.

Aybdorning huquqbazarlikning zararli oqibatlari oldini olishi deganda uning bunday oqibatlarni bartaraf etish yoki kamaytirish sohasidagi real harakatlari tushuniladi. Masalan, huquqbazar yo‘l qatlamiga shikast yetkazar ekan, uni darhol ta’mirlab beradi. Zararni o‘z ixtiyori bilan qoplash shuni bildiradiki, huquqbazar hech bir talabsiz, eslatishsiz o‘z tashabbusi bilan shikast yetkazilgan mulkning qiymatini to‘laydi. Yetkazilgan zararni bartaraf etish deganda, masalan, shikastlangan mulkni ta’mirlash yoki uni xuddi shunday yangisi bilan almashtirish tushuniladi.

Agar huquqbazar aqli raso bo‘lib, kuchli ruhiy hayajon ta’sirida huquqbazarlik sodir etgan bo‘lsa, bu javobgarlikni yengillashtiruvchi holat hisoblanadi. Basharti huquqbazar aqli norasolik holatida huquqni buzgan bo‘lsa, bu holat umuman ma’muriy javobgarlikni istisno qiladi. Og‘ir shaxsiy, oilaviy yoki boshqa sharoitlar yuzaga kelganligi deganda shaxsiy yoki oilaviy tarzdagi moddiy yoxud boshqa qiyinchiliklar tushuniladi. Shaxs ana shu qiyinchiliklar ta’sirida huquqbazarlikni sodir etgan bo‘ladi.

Huquqbazarlikning tahdid yoki majburlov ta'sirida yoxud xizmat yuzasidan, moddiy yoki boshqa jihatdan qaramligi ta'siri ostida sodir etilishi shuni anglatadiki, huquqbazar huquqbazarlikni asosan chetdan bo'lган ta'sir ostida sodir etadi, basharti bu ta'sir bo'lmaganда u mazkur huquqbazarlikni sodir etmagan bo'lardi.

Huquqbazarlikning voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilishi ham javobgarlikni yengillashtiruvchi holat hisoblanadi. Qonunchilik bunda shu narsaga asoslanadiki, 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lган shaxslar huquqbazarlikni hayotiy tajribasi yetishmasligi, javobgarlik to'g'risidagi mavjud normalarni bilmaligi, kattalarning ta'siri bilan sodir etishlari mumkin.

Javobgarlikni yengillashtiruvchi yana bir holat huquqbazarlikni homilador ayol yoki o'n to'rt yoshgacha bo'lган bolasini yolg'iz o'zi tarbiyalayotgan shaxsning sodir etishidir. O'n to'rt yoshgacha bo'lган bolani yolg'iz o'zi tarbiyalovchi shaxs ayol ham, erkak ham bo'lishi mumkin.

Ana shu modda normasiga muvofiq, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqayotgan organ yoki mansabdor shaxs javbogarlikni yengillashtiruvchi boshqa holatlarni ham e'tirof qilishi kerakki, bularga huquqbuzarning yoshi, sog'lig'i, nogironligi, xizmatlari, urushda qatnashganligi va shu kabilar kiradi.

Davlat organi (mansabdor shaxs) ma'muriy jazo chorasi qo'llayotganda javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni va huquqbuzarning moddiy ahvolini inobatga olgan holda sababini albatta ko'rsatib, O'zR MJtKning Maxsus qismidagi moddalarning jazo belgilash qismida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham yengilroq jazo chorasi qo'llashi mumkin. Sodir etilgan ma'muriy huquqbazarlik kam ahamiyatli bo'lган taqdirda, shu ishni ko'rib chiqishga vakolati bo'lган organ (mansabdor shaxs) huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod etib, uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkin.

O'zR MJtKning 32-moddasiga binoan ma'muriy javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarga quyidagilar kiradi:

1) g‘ayrihuquqiy harakatlarni to‘xtatish vakolati bor shaxslar tomonidan qo‘yilgan talabga qaramay, bunday harakatlarni davom ettirish;

2) ma’muriy jazo chorasiga tortilgan shaxsning bir yil mobaynida yana o‘sha xildagi huquqbazarlikni sodir etishi, xuddi shuningdek huquqbazarlikning ilgari sudlangan shaxs tomonidan sodir etilishi;

3) voyaga yetmagan shaxsni huquqbazarlikka tortish;

4) huquqbazarlikning bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilishi;

5) huquqbazarlikning tabiiy ofat sharoitida yoki boshqa favqulodda holatlarda sodir etilishi;

6) huquqbazarlikning mast holda sodir etilishi. Ma’muriy jazo chorasini qo‘llanuvchi organ (mansabdor shaxs) sodir etilgan ma’muriy huquqbazarlikning xususiyatiga qarab mazkur holatni aybni og‘irlashtiruvchi holat deb topmasligi mumkin.

Ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqayotgan organ (mansabdor shaxs) ma’muriy jazo chorasini qo‘llanayotgan vaqtda Kodeksning 32-moddasida mustahkamlangan va yuqorida nazarda tutilgan huquqbuzarning javobgarligini og‘irlashtiruvchi holatlarni ham hisobga olishi lozim. Bu holatlar mavjud bo‘lganda huquqbuzarga nisbatan yanada qattiqroq jazo chorasi qo‘llanilishi lozim.

Ma’muriy huquqbazarlik tarkibiga baho beruvchi belgilar sifatida kiritilmagan holatlar javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlar deb e’tirof qilinadi. Basharti mazkur holat muayyan huquqbazarlikka baho beruvchi belgi hisoblansa, u javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat deb hisoblanmasligi kerak. Masalan, Kodeksning 188-moddasi voyaga yetmaganlarni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilganlik uchun; 194-modda militsiya xodimining qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun javobgar bo‘lishni nazarda tutadi.

Voyaga yetmaganlarni huquqbazarlikka jalb qilish va militsiya xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik bu huquqbazarliklarga baho beruvchi belgilar hisoblanadi va shu sababli muayyan holatda javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlar bo‘lmasligi mumkin.

G‘ayrihuquqiy harakatlarni to‘xtatish vakolatiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan qo‘yilgan talabga qaramay, bunday harakatlarni

davom ettirish javobgarlikni og‘irlashtiradi, chunki shaxs ogohlantirishga qaramay, huquqbazarlik sodir etishni qasddan davom ettiradi, bu esa huquqbazarlikning yovuz niyat bilan qilinganligidan guvohlik beradi. Bunda huquqbazar hokimiyat vakilining talablarini nazar-pisand qilmaydi bu ham uning aybdorlik darajasini og‘irlashtiradi.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, ayrim mansabdor shaxslarning va jamoatchilik vakillarining huquqbazarlikni to‘xtatish to‘g‘risidagi qonuniy talablarini bajarmaslik ma’muriy huquqbazarlikning mustaqil tarkibini hosil qiladi. Masalan, ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 194-moddasi miliitsiya xodimining qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun, shuningdek jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlash sohasidagi vazifalarni amalga oshiruvchi boshqa shaxslarning qonuniy talablarini ham bajarmaganlik uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

Shaxs ilgari sodir etgan huquqbazarlik uchun javobgarlikka tortilgan bo‘lib, yil davomida bu huquqbazarlikni sodir etishni yana takrorlasa, bu javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat deb e’tirof qilinadi. Bu hol huquqbuzarning barqaror g‘ayrihuquqiy yo‘l tutishidan dalolat beradi, unga nisbatan birinchi huquqbazarlik uchun amalga oshirilgan ma’muriy ta’sir ko‘rsatish o‘zining tarbiyaviy va ogohlantiruvchi ta’sirini o‘tkazmagan bo‘ladi.

Takroriy huquqbazarlik quyidagi hollarda javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat deb e’tirof qilinishi mumkin: birinchidan, faqat yangidan sodir etilgan bir xil huquqbazarlik sharhlanayotgan modda ma’nosida takroriy huquqbazarlik bo‘ladi. Basharti ilgari ma’muriy jazo chorasiga duchor bo‘lgan shaxs shundan keyin boshqa ma’muriy huquqbazarliklar sodir etsa, bunday takrorlashni (umumiylashni) ma’muriy qonunchilik javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat deb e’tirof qilmaydi.

Ikkinchidan, Kodeksning 37-moddasiga muvofiq, qonun chiqaruvchi bir yil muddat belgilaydi, ana shu davrda huquqbazarlik takrorlansa, u takroriy huquqbazarlik deb e’tirof qilinishi mumkin.

Uchinchidan, bir xil turdagи huquqbazarlikni sodir etgani uchun Ma’muriy jazoga tortilgan shaxs tomonidan sodir etilgan huquqbazarlik

ham takroriy hisoblanadi. To‘rtinchidan, basharti takroriy huquqbazarlik huquqbazarlik tarkibining baho beruvchi belgisi hisoblanmasa, bunday takroran sodir etilgan huquqbazarlik og‘irlashtiruvchi huquqbazarlik deb e’tirof qilinadi.

Ilgari huquqbazarlik sodir etgan shaxs tomonidan huquqbazarlikning sodir qilinishi mazkur shaxs uning uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan-tortilmaganidan qat’i nazar, bu og‘irlashtiruvchi holat hisoblanadi. Jinoiy xatti-harakat faktining o‘zi jinoiy harakatdan keyin yana ma’muriy huquqbazarlik ham sodir etgan shaxsning oshirilgan ijtimoiy xavfli ekanligidan dalolat beradi.

Voyaga yetmagan shaxsni huquqbazarlikka tortish u qanday shaklda (jinoyat qilishga undash, aldash) bo‘lishidan qat’i nazar, javobgarlikni og‘irlashtiradi. Ana shu shaxslarni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatga jalb qilish JKning 127-moddasida ko‘zda tutilgan jinoyat tarkibini hosil qiladi, qonun chiqaruvchi voyaga yetmaganlarni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatga (spirtli ichimliklar, ta’sir qiladigan vosita yoki moddalarni iste’mol qilishga) jalb qilishning alohida xavfli ekanligini hisobga olib, voyaga yetmaganlarni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatga jalb qilganlik uchun ma’muriy javobgarlikni nazarda tutgan (188-moddaning sharhlariga qarang).

Huquqbazarlikning shaxslar guruhi tomonidan sodir etilishi hamisha katta xavf tug‘dirgan. Bunda aynan bitta ma’muriy huquqbazarlikni sodir etish uchun kuchlarni birlashtirish nazarda tutiladi. Bir xil huquqbazarliklarning bir necha shaxslar tomonidan mustaqil sodir etilishi ushbu modda mazmuniga binoan javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat hisoblanmaydi.

Huquqbazarlikning tabiiy ofat sharoitida yoki boshqa favqulodda holatlar sharoitida sodir etilishini qonun javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat deb e’tirof qiladi. Tabiiy ofatlar sharoiti deganda zilzila, o‘pirilishlar, sellar, yong‘inlar, suv toshqinlari va shu kabi holatlar tushuniladi.

Boshqa favqulodda holatlarga harbiy holat va boshqa sharoitlar kiradiki, ular vaziyatni keskin murakkablashtiradi va aholi uchun katta xavf-xatar tug‘diradi. Bunday holatlardan huquqbazarlikni sodir etish

uchun foydalanuvchi shaxs ushbu modda sanksiyasi doirasida og‘irroq ma’muriy javobgarlikka tortilishi lozim. Biroq bunday sharoitda beriladigan jazo ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksning 29-moddasi asosida ma’muriy ishlar bo‘yicha sudya, harbiy komendant yoki ichki ishlar organi boshlig‘i tomonidan 30 sutkagacha ma’muriy qamoqqa olishdir.

Huquqbazarlikning mast holda sodir etilishi javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat hisoblanadi. Bunday holat ish materiallari bilan (tibbiy guvohlik dalolatnomasi, guvohlarning bergan ko‘rsatmasi va shu kabilar) belgilanishi lozim. Ma’muriy huquqbazarliklarning ayrim turlari uchun mastlik holati tarkibning zarur belgilaridan biri hisoblanadi.

Bir necha huquqbazarlikni sodir etganlik uchun ma’muriy jazoni qo‘llash tartibiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bitta shaxs ikki yoki undan ortiq ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan taqdirda ma’muriy jazo har bir huquqbazarlik uchun alohida-alohida qo‘llaniladi.

Agar shaxs bir necha ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan bo‘lib, shu haqidagi ishlar bir vaqtning o‘zida ayni bir organ (mansabdor shaxs) tomonidan ko‘rib chiqilayotgan bo‘lsa, bu shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan uzil-kesil jazo og‘irroq ma’muriy jazoni nazarda tutuvchi sanksiya doirasida qo‘llaniladi.

Basharti shaxs O‘zR MJtKning Maxsus qismidagi bir necha modda bilan Ma’muriy javobgarlik belgilangan va ular to‘g‘risidagi ishlarni har xil organ (mansabdor shaxs) ko‘radigan harakat (harakatsizlik) sodir etgan bo‘lsa, unga nisbatan og‘irroq ma’muriy jazoni nazarda tutuvchi sanksiya doirasida qo‘llaniladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ma’muriy jazo huquqbazarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbazarliklar uchun esa huquqbazarlik aniqlangan kundan boshlab ikki oydan kechiktirmay qo‘llanilishi mumkin.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish rad etilgan yoki jinoyat ishi tugatilgan bo‘lsa-da, lekin huquqbuzarning harakatlarida ma’muriy huquqbazarlik alomatlari mavjud bo‘lsa, ma’muriy jazo chorasi jinoyat ishi

qo‘zg‘atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oydan kechiktirmay qo‘llanilishi mumkin.

Ushbu muddatlar ashylarni bojxona munosabatlarini tartibga soladigan qonun hujjatlari asosida musodara qilish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ma’muriy jazoga tortilgan shaxs shu jazoni o‘tash muddati tugagan kundan boshlab bir yil mobaynida yangi ma’muriy huquqbuzarlik sodir etmagan bo‘lsa, mazkur shaxs ma’muriy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi.

Ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs ma’muriy huquqbuzarlik oqibatida keltirilgan zararni qoplashi shart.

Basharti ma’muriy huquqbuzarlik sodir etish oqibatida jismoniy shaxsga, korxona, muassasa, tashkilotga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi yoki davlatga yetkazilgan mulkiy zarar belgilab qo‘yilgan eng kam ish haqidan ko‘p bo‘lmasa, organ (mansabdor shaxs) jazo qo‘llash paytida aybdor bu zararni qoplashi to‘g‘risidagi masalani ham hal etishga haqlidir, ma’muriy ishlar bo‘yicha sudya esa bu masalani yetkazilgan zarar miqdoridan qat’i nazar, hal qilaveradi.

Boshqa hollarda ma’muriy huquqbuzarlik natijasida yetkazilgan mulkiy zararni qoplash fuqarolik-huquqiy tartibida hal qilinadi.

Ma’muriy jazoni qo‘llash – ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni bajarilmaganligi uchun ma’muriy jazo qo‘llanilgan vazifani bajarishdan ozod etmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga binoan zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat va aqli norasolik holatida sodir etilgan harakatlar ma’muriy huquqbuzarlik hisoblanmaydi va ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Jumladan, O‘zR MJtKning 18-moddasiga binoan ma’muriy huquqbuzarlik uchun ma’muriy javobgarlikni belgilovchi normativ hujjatlarda nazarda tutilgan, lekin zaruriy mudofaa holatida, ya’ni shaxsni yoki mudofaalanuvchining yoxud boshqa shaxsning huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini g‘ayrihuquqiy tajovuzlardan shunday tajovuz qilayotgan shaxsga zarar yetkazish yo‘li bilan himoya qilish vaqtida, basharti bunda zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib ketilishiga

yo‘l qo‘yilmagan bo‘lsa, sodir etilgan harakatlar ma’muriy huquqbuzarlik deb hisoblanmaydi.

O‘zR MJtKning 19-moddasiga binoan normativ hujjatlarda nazarda tutilgan huquqlarga hamda qonun bilan himoya etiladigan manfaatlarga zarar yetkazgan, oxirgi zarurat holatida, ya’ni shaxsga yoki mazkur shaxsning yoxud boshqa shaxsning huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariiga tahdid yetayotgan xavfni, basharti bu xavfni o‘sha holatda boshqacha choralar bilan bartaraf yetib bo‘lmasa hamda yetkazilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo‘lsa, bartaraf etish uchun sodir etilgan harakatlar ma’muriy huquqbuzarlik deb hisoblanmaydi.

O‘zR MJtKning 20-moddasiga binoan g‘ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik sodir etgan vaqtida aqli norasolik holatida bo‘lgan shaxs, ya’ni ruhiy holatining surunkali yoki vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoxud boshqa xil kasallik oqibatida o‘z harakatining (harakatsizlikning) ahamiyatini idrok eta olmagan yoki boshqara olmagan shaxs ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Aqli norasolik shaxsning g‘ayrihuquqiy harakatni yoki harakatsizlikni sodir etish vaqtidagi shunday ruhiy holatiki, u mazkur qilmish uchun javobgarlikni qo‘llash imkoniyatini yo‘qqa chiqaradi.

Aqli norasolikning mezonlari qonunchilikda aniq sanab o‘tilgan bo‘lib, unga quyidagilar kiradi:

a) ruhiy holatining surunkali buzilganligi ruhiy kasallik davolab bo‘lmaydigan yoki qiyin davolanadigan ruhiy kasallik hisoblanadi. Masalan, shizofreniya, yepilepsiya – surunkali ruhiy kasallikkardir;

b) ruhiy holatining vaqtincha buzilganligi surunkali ruhiy kasallikdan farqli ravishda, nisbatan tez o‘tib ketadigan va tuzalish bilan tugallanadigan ruhiy kasallikdir. Bunga og‘ir ruhiy larzalar natijasida kelib chiqadigan reaktiv holatlar, patologik mastlik va boshqalar kiradi;

d) aqli zaiflik – ruhiyatning muhim kamchiliklaridan bo‘lib, o‘z xatti-harakatlarining xususiyatiga va ularni sodir etishning ehtimol tutilgan oqibatlariga baho berishga to‘sinqilik qiladi. Aqli zaiflik inson tug‘ilgan paytdan bo‘lishi yoki bolaligidan paydo bo‘lishi yoxud avj olib boruvchi qandaydir ruhiy kasallikning natijasi bo‘lishi mumkin. Aqli zaiflik (idiotiya) – aqliy jihatdan rivojlanmaganlikning yeng chuqr

darajasi, imbettsiallik – aqliy zaiflikning o‘rtacha darajasi va debillik – aqliy zaiflikning yengil darajasi shaklida ifodalanishi mumkin;

e) boshqa kasalliklar – ruhiy buzilishning og‘ir shakli bilan bog‘liq bo‘lgan turli kasalliklar, psixopatiyaning ayrim shakllari, yuqumli kasalliklar bilan bog‘liq bo‘lgan ruhiy xastaliklar.

Ma’muriy huquqbazarlikni sodir etgan shaxs tibbiy ko‘rikdan o‘tishi hamda yuqorida sanab o‘tilgan kasalliklarning mavjudligi haqida ruhiy shifokorning xulosasi bo‘lishi lozim.

Agar ma’muriy huquqbazarlikni sodir etgan shaxsda ruhiy kasallik mavjudligi haqida ma’lumot bo‘lsa, ishni ko‘rib chiquvchi organ ekspertiza tayinlashi mumkin.

Ma’muriy huquqbazarlikni sodir etgan shaxsning aqli noraso ekanligi aniqlanganda, ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish boshlanishi mumkin emas, boshlangan ish esa to‘xtatilishi kerak.

8-§. Yengilroq Ma’muriy jazo chorasini va bir necha huquqbazarlikni sodir etganlik uchun Ma’muriy jazo qo‘llanish tartibi

Sud ma’muriy jazo chorasini qo‘llayotganda javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni va huquqbuzarning moddiy ahvolini inobatga olgan holda sabablar va asoslarni albatta ko‘rsatib, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning Maxsus qismidagi moddalarning sanksiyasida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham kamroq jazo yoki ushbu moddada nazarda tutilmagan boshqa yanada yengil jazo chorasini qo‘llashi mumkin. Ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiquvchi boshqa organ (mansabdor shaxs) javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni va huquqbuzarning moddiy ahvolini inobatga olgan holda yengilroq ma’muriy jazo chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi masalani hal etish uchun ishni Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 308¹-moddasida belgilangan tartibda sudga yuboradi.

Kodeksning 34-moddasiga binoan, bir necha huquqbazarlikni sodir etganlik uchun ma'muriy jazo choralarining qo'llanilishi quyidagi umumiylar mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi:

a) bitta shaxsning ikki va undan ortiq ma'muriy huquqbazarlikni sodir etishi, bu huquqbazarliklarning har biri uchun Kodeksning Maxsus qismidagi mustaqil sanksiyaga ega bo'lgan alohida modda bo'yicha baho beriladi;

b) har bir huquqbazarlik bo'yicha ma'muriy javobgarlikka tortish muddati o'tib ketmasligi;

d) bu huquqbazarliklardan birortasi uchun ham shaxs ma'muriy jazo chorasiga tortilmagan bo'lishi kerak.

Ma'muriy qonunlar jinoyat qonunlaridan farqli o'laroq, bir necha huquqbazarlik uchun jazo choralarini birga qo'shish imkoniyatini nazarda tutmaydi. 34-moddaning qoidalariga ko'ra, har bir huquqbazarlik uchun jazo chorasi alohida-alohida qo'llaniladi, ushbu moddaning 2 va 3-qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasnodir.

Jumladan, bitta shaxs ikki yoki undan ortiq ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan taqdirda ma'muriy jazo har bir huquqbazarlik uchun alohida-alohida qo'llaniladi.

Basharti shaxs bir necha ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan bo'lib, shu haqdagi ishlar bir vaqtning o'zida ayni bir organ (mansabdar shaxs) tomonidan ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, bu shaxsga nisbatan qo'llaniladigan uzil-kesil jazo og'irroq ma'muriy jazoni nazarda tutuvchi sanksiya doirasida qo'llaniladi.

Basharti shaxs Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning Maxsus qismidagi bir necha modda bilan ma'muriy javobgarlik belgilangan va ular to'g'risidagi ishlarni har xil organ (mansabdar shaxs) ko'radigan harakat (harakatsizlik) sodir etgan bo'lsa, unga nisbatan jazo og'irroq ma'muriy jazoni nazarda tutuvchi sanksiya doirasida qo'llaniladi.

Basharti shaxs Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks Maxsus qismidagi tegishli modda bilan Ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan harakatni (harakatsizlikni) voyaga yetmagan shaxsni ma'muriy

huquqbuzarlik sodir etishga jalb qilgan holda (ushbu Kodeksning 188¹-moddasi) sodir etgan bo'lsa, ish materiallari ko'rib chiqish uchun sudga topshiriladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 34-moddasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda asosiy jazoga sodir etilgan huquqbuzarliklardan istalgan bittasi uchun javobgarlik to'g'risidagi moddalarda nazarda tutilgan qo'shimcha jazo choralaridan biri qo'shilishi mumkin.

9-§. Ma'muriy qamoq va maxsus huquqdan mahrum etish muddatlarini hisoblash va ma'muriy jazo qo'llanish muddatlari

Ma'muriy qamoq muddati sutkalar bilan, maxsus huquqdan mahrum etish muddati esa kunlar, oylar, yillar bilan hisoblanadi.

Ma'muriy qamoqqa olish sudya tomonidan uch sutkadan o'n besh sutkagacha, favqulodda holat tartibi sharoitida esa jamoat tartibiga tajovuz qilingani uchun sudya, harbiy komendant yoki ichki ishlar organi boshlig'i tomonidan o'ttiz sutkagacha tayinlanishi mumkin. Ma'muriy qamoqqa olish muddati sutkaning qismlari, ya'ni soatlar, yarim sutka bilan belgilanishi mumkin emas.

Maxsus huquqdan mahrum etish sudya tomonidan uch-yilgacha bo'lган muddatga qo'llanishi mumkin. Shunday huquqdan mahrum etish muddati o'n besh kundan kam bo'lishi mumkin emas.

Ma'muriy jazo chorasi muayyan muddatining o'tib borishi ma'muriy huquqbuzarlik haqidagi ishni ko'rib chiqayotgan organ ma'muriy jazo chorasi belgilash to'g'risida qaror qabul qilgan kuni (agar muddat oylar va yillar bilan hisoblansa) yoki soatda (agar muddat sutkalar bilan hisoblansa) boshlanadi.

Yil va oy deganda taqvim yili yoki oyi tushuniladi. Muddatlar-yillar yoki oylar bilan hisoblanganda ma'muriy jazo qaysi oydan hisoblansa, muddat o'sha oyning tegishli kunida tamom bo'ladi. Agar bu oy tegishli kunga ega bo'lmasa, u holda muddat oyning oxirgi sutkasida tugaydi.

Muddatlar sutka bilan hisoblanganda muddat oxirgi sutkaning tunida soat 24 da tamom bo'ladi.

Kunlar bilan belgilangan muddatlar sutkalar bilan belgilangan muddatlar kabi hisoblanadi.

Ma'muriy jazo huquqbazarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbazarliklar uchun esa huquqbazarlik aniqlangan kundan boshlab bir yildan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

Biroq xususiyati jihatidan har xil bo'lgan ma'muriy huquqbazarliklar uchun mazkur muddatni hisoblash nuqtasi turlichadir. Ko'pchilik nojo'ya xatti-harakatlar uchun ma'muriy jazo chorasi ni tatbiq etish muddatining boshlanishi huquqbazarlik sodir etilgan kun hisoblanadi. Basharti huquqbazarlikni sodir etish davom etayotgan bo'lsa, uning o'tish muddati boshqacha hisoblanadi. Muayyan muddat davomida uzlucksiz ravishda amalga oshirib kelinayotgan huquqbazarlik davom etayotgan huquqbazarlik deb e'tirof qilinadi. Davom etayotgan ma'muriy huquqbazarlikka o'qotar qurolni saqlash, yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish, ro'yxatdan o'tmasdan yashash va shu kabilar misol bo'lishi mumkin. Bu huquqbazarliklar muayyan xatti-harakatni uzlucksiz amalga oshirish bilan ajralib turadi. Davom etayotgan huquqbazarliklar bo'yicha ikki oylik muddat dastlabki huquqbazarlik boshlangan paytdan emas, balki bu huquqbazarlik faktining o'zini aniqlash paytidan boshlanadi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan yoki jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa-yu, lekin huquqbuzarning harakatlarida ma'muriy huquqbazarlik alomatlari mavjud bo'lsa, ma'muriy jazo chorasi jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida, agar ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan muddatlar o'tmagan bo'lsa, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

Ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar ashyolarni bojxona munosabatlarini tartibga soladigan qonun hujjatlari asosida musodara qilish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

10-§. Ma'muriy huquqbazarlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilovchi davlat organlari va mansabdor shaxslar

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlashni, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqilishini, shuningdek bunday huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari sohasida quyidagilar O'zbekiston Respublikasi ixtiyoriga berilgan:

ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining umumiy qoidalarni belgilab berish;

ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladigan harakat yoki harakatsizlikni, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organlar tizimini (mansabdor shaxslarni), mazkur ishlarni yuritish va chiqarilgan qarorlarning ijrosi tartibini belgilash;

ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari sohasida Qoraqalpog'iston Respublikasining vakolatlarini belgilash;

Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining ma'muriy javobgarlik nazarda tutiladigan qaror qabul qilishlari mumkin bo'lgan masalalar doirasini belgilash.

Ma'muriy javobgarlikni qo'lllovchi organlar vakolat doirasidan kelib chiqqan holda ularni quyidagilarga bo'lish mumkin:

- 1) sud organlari tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy javobgarlik;
- 2) davlat boshqaruvi organlari (yoki vakolat berilgan organlar) tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy javobgarlik.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari sohasida quyidagilar O'zbekiston Respublikasi ixtiyoriga beriladi:

ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplarini aniqlash va umumiy qoidalarni belgilab berish;

ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladigan harakat yoki harakatsizlikni, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib

chiqish vakolatiga ega bo‘lgan organlar tizimini (mansabdor shaxslarni), mazkur ishlarni yuritish va chiqarilgan qarorlarning ijrosi tartibini belgilash;

ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari sohasida Qoraqalpog‘iston Respublikasining vakolatlarini belgilash;

viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyat vakillik organlari hamda hokimlari ma’muriy javobgarlik nazarda tutiladigan qaror qabul qilishlari mumkin bo‘lgan masalalar doirasini belgilash.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari sohasida quyidagilar Qoraqalpog‘iston Respublikasi ixtiyoriga beriladi:

jamoat tartibini saqlash masalalari bo‘yicha, basharti bu masalalar ushbu Kodeks bilan tartibga solinmagan bo‘lsa, shuningdek tabiiy ofatlar va epidemiyalarga qarshi kurash masalalari bo‘yicha ma’muriy javobgarlik belgilash;

ushbu Kodeksning 90, 109, 110, 161, 162-moddalariga, 164-moddasining ikkinchi qismiga, 168-moddasiga binoan buzilishi ma’muriy javobgarlikka sabab bo‘ladigan qoidalarni belgilash.

Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari quyidagi:

jamoat tartibini saqlashga doir masalalar yuzasidan, basharti bu masalalar ushbu Kodeks bilan tartibga solinmagan bo‘lsa, shuningdek tabiiy ofatlar va epidemiyalarga qarshi kurash masalalari bo‘yicha ularni buzganlik uchun ma’muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan qarorlar qabul qilish;

ushbu Kodeksning 90, 109, 110, 161, 162-moddalariga, 164-moddasining ikkinchi qismiga, 168-moddasiga binoan buzilishi ma’muriy javobgarlikka sabab bo‘ladigan qoidalarni belgilash kabi vakolatlarga egadir.

11-§. Ma’muriy huquqbazarlikni istisno qiladigan holatlarning tushunchasi va turlari

Ijtimoiy munosabatlarni har qanday tajovuzlardan himoya qilish davlatning, jamoat tashkilotlarining va barcha fuqarolarning muhim vazifasi hisoblanadi. Ana shunday tajovuzlardan himoya qilish, burchiga

sadoqat, ijtimoiy hayotda huquq tartibotni saqlashning, jamiyatda osoyishtalikni ta'minlashning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbazarlik tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan huquqbazarliklardan, shuningdek huquqbazarlik hisoblanmagan, ammo jamiyat uchun ijtimoiy xavfli hisoblangan (aqli norasolar, huquqbazarlik subyekti yoshiga yetmaganlar, tabiiy ofatlar) huquqbazarliklardan ijtimoiy munosabatlarni himoya qilish har bir fuqaroning burchidir. O'z xizmat vazifasi yuzasidan ijtimoiy munosabatlarni himoya qilish topshirilgan shaxslar (ichki ishlar xodimlari, harbiy xizmatchilar)ning majburiyati hisoblanadi.

Ijtimoiy munosabatlar xavf ostida qolgan va bu ijtimoiy munosabatni darhol himoya qilish zarurati kelib chiqqan bo'lsa, har bir fuqaroga xavfni bartaraf qilish orqali ijtimoiy munosabatni himoya qilish burchi yuklatilgan. Muayyan shaxs yoki boshqa xavf manbai tomonidan ijtimoiy munosabatga moddiy yoki jismoniy zarar yetkazish xavfi vujudga keltirilganda ushbu xavfni bartaraf qilishi jarayonida shaxsga yoki boshqa bir ijtimoiy munosabatga zarar yetkazilishi mumkin. Ana shu yetkazilgan moddiy yoki jismoniy zarar O'zR Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi Maxsus qismining biror moddasida nazarda tutilmagan huquqbazarlikka formal jihatdan o'xshasa-da, ammo ijtimoiy xavfli hisoblanmaganligi tufayli huquqbazarlik hisoblanmaydi. Ijtimoiy munosabatga zarar yetkazish xavfi vujudga kelganda bunday xavfni bartaraf qilish jarayonida shaxsga yoki ijtimoiy munosabatga zarar yetkazish faqat huquqbazarlik hisoblanmay, balki ijtimoiy foydali, jamiyat nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq hamdir. Chunki bunday zarar davlat, jamoat yoki fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida tajovuzchiga nisbatan xavf manbayini bartaraf qilish maqsadida qo'llaniladi.

Ayrim hollarda yengib bo'lmaydigan jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ta'sirida shaxs huquqbazarlik sodir qilib qo'yadi. Bunday ma'muriy huquqbazarlik shaxsning irodasiga bog'liq bo'lmasligi tufayli bunday harakatlarda ham huquqbazarlikning tarkibi bo'lmaydi.

Yuridik adabiyotlarda qanday harakatlar ma'muriy huquqbazarlikni istisno qiladigan holatlar turkumiga kirishi kerakligi haqida olimlar turli-

tuman fikrlarni bildirganlar. Ijtimoiy xavfli hisoblanmagan ma'muriy huquqbazarliklarda huquqbazarlik tarkibi ham bo'lmaydi, bunday ma'muriy huquqbazarliklardan ijtimoiy munosabatlarni himoya qilish zaruriyati ham kelib chiqmaydi.

Ma'muriy huquqbazarliklarni istisno qiluvchi holatlarning quyidagi, ya'ni zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, aqli norasolik, huquqbazarlikning kam ahamiyatliligi sababli ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish, jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqtish kabi turlarini keltirib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 18-moddasida zaruriy mudofaa haqida so'z yuritilgan bo'lib, ushbu Kodeksda yoki ma'muriy huquqbazarlik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilovchi boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan, lekin zaruriy mudofaa holatida, ya'ni shaxsni yoki mudafaalanuvchining yoxud boshqa shaxsning huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini g'ayrihuquqiy tajovuzlardan shunday tajovuz qilayotgan shaxsga zarar yetkazish yo'li bilan himoya qilish vaqtida, basharti bunda zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib ketilishiga yo'l qo'yilmagan bo'lsa, sodir etilgan harakatlar ma'muriy huquqbazarlik deb hisoblanmaydi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 2-moddasida belgilanishiga ko'ra ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiyadolat va qonuniylikni ta'minlashni, ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqilishini, shuningdek bunday huquqbazarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu Kodeks qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbazarlik hisoblanishini, ma'muriy huquqbazarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdor shaxs) tomonidan qay tartibda qanaqa ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 47-moddasida “Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarini bajaradilar” deyiladi. Zaruriy mudofaa holatida qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga qilingan tajovuzlardan ularni himoya qilish fuqarolarning burchidir. Shuningdek, Konstitutsiyaning 27-moddasida har kim o‘z sha’ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoya qilish huquqiga ega ekanligi ta’kidlanadi. Shunga ko‘ra mudafaalanuvchining yoki boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini zaruriy mudofaa holatida himoya qilish chog‘ida tajovuzchiga zarar yetkazilsa, agar mudafaalanuvchi zaruriy mudofaa chegarasidan chiqmagan bo‘lsa, huquqbazarlik hisoblanmaydi.

Zaruriy mudofaaning qonuniy harakat ekanligi fuqarolarning huquqbazarlikka qarshi faol kurash olib borishining samarali usulidan biri hisoblanadi.

Aytish kerakki, ayrim hollarda jinoyatchiga jinoyati uchun jazolanishga nisbatan zaruriy mudofaa holatida unga zarar yetkazish xavfliroqdir. Chunki jabrlanuvchiga (mudafaalanuvchiga) hech qanday zarar yetkazilmagani holda jinoyatchiga nisbatan og‘ir oqibatli zarar (masalan, badaniga og‘ir shikast) yetkazilishi mumkin. Jinoiy tajovuz qilish vaqtida o‘ldirib qo‘yish yoki badaniga og‘ir shikast yetkazish uning uchun qo‘rqinchliroqdir.

Shaxslarda zaruriy mudofaa huquqining mavjudligi, fuqarolarda har qanday jinoiy tajovuzlarga murosasizlik, o‘zining fuqaroviy burchini bajarayotganligini his qilish, ezgulik uchun harakat qilayotganligidan faxrlanish kabi sifatlarning turg‘un holda kishi shaxsida shakllanishining muhim omili hamdir.

Zaruriy mudofaa huquqi fuqarolarning davlat va jamoat manfaatlariga, fuqarolarga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga har qanday tajovuz qilishlardan himoya qilish sohasidagi huquqlari va vazifalari to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qoidalarni ro‘yobga chiqarishning eng muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi. Zaruriy mudofaa huquqi aholini huquqbazarliklarga qarshi kurash olib borishda

ishtirok etishga, bunday huquqbazarliklarning oldini olish va ularni barham toptirishga jalb etishga imkon beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 18-moddasida g‘ayrihuquqiy tajovuzlardan zaruriy mudofaada qanday aniq davlat, jamoat va shaxsiy manfaatlar himoya qilinishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tiladi. Bular davlat va jamiyat, shaxsning manfaatlari, mudofaalanuvchi yoki boshqa shaxsning huquqlaridir. Zaruriy mudofaada bartaraf qilinadigan tajovuz ko‘rsatib o‘tilgan manfaatlarga yoki huquqlarga zarar yetkazish yoxud ana shunday zarar yetkazishga bevosita taxdid solishi kerak.

Zaruriy mudofaada bartaraf qilinadigan tajovuz g‘ayrihuquqiy bo‘lishi, ya’ni Kodeksning Maxsus qismida yoki boshqa nazariy hujjatda nazarda tutilgan bo‘lishi lozim. Ko‘rsatib o‘tilgan tajovuz ayni vaqtning o‘zida aybli tajovuz bo‘lishi shart emas. Kichik yoshdagilarga, shuningdek aqli norasolarga qarshi mudofaaga ham yo‘l qo‘yiladi. Biroq bu shaxslarga nisbatan mudofaalanuvchi zarar yetkazmagan holda tajovuzni barham toptirish uchun iloji boricha barcha choralarни ko‘rishi kerak.

Mansabdor shaxslarning haqqoniy harakatlariga qarshi, masalan, mayda bezorilik qilgan shaxsni ushlagan miliitsiya xodimiga nisbatan mudofaaga yo‘l qo‘yish mumkin emas. Bartaraf qilinadigan tajovuzga qarshi mudofaaning to‘g‘riliqi sharti tajovuzning mavjudligidir, bu esa uni daf qilish paytida zarar yetkazilishini yoki zarar yetkazish bevosita xavfinining realligini nazarda tutadi. Basharti tajovuz hali boshlanmagan bo‘lsa yoki tugallangan bo‘lsa, mudofaa to‘g‘ri deb e’tirof qilinishi mumkin emas.

Zaruriy mudofaaning sharti mudofaalanuvchining taxmini emas, balki tajovuzning haqiqiyligidir.

Hujum qilish soxta emas, balki haqiqiy bo‘lishi lozim.

Zaruriy mudofaada tajovuzdan himoyalanish, oxirgi zaruratdan farq qilib, uchinchi shaxslarga emas, balki faqat tajovuz qiluvchining o‘ziga zarar yetkazish yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin. Zaruriy mudofaada tajovuz qiluvchiga zarar yetkazish Kodeksning Maxsus qismida yoki ma’muriy huquqbazarliklar sodir etganlik uchun ma’muriy

javobgarlikni nazarda tutuvchi boshqa normativ hujjatda ko‘zda tutilgan harakatni sodir etganlik natijasi bo‘lishi lozim.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib ketilishi bilan himoyaning tajovuz xususiyati va xavfiga yaqqol mos kelmasligi e’tirof etiladi. Zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib ketilishi belgilarining mavjudligi yoki yo‘qligi to‘g‘risidagi masalani hal qilganda, faqat tegishli himoyalanish va hujum qilish vositalarining mos kelishinigina emas, shu bilan birga, mudafaalanuvchiga tahdid solayotgan xavfning xususiyatini ham, uning kuchini va tajovuzni daf qilish imkoniyatini ham, shuningdek, tajovuz qiluvchi bilan mudafaalanuvchi kuchlarining real nisbatiga ta’sir qiluvchi boshqa barcha holatlarni ham (tajovuz qiluvchilar va mudafaalanuvchilar sonini, ularning yoshini, jiemoniy rivojlanishini, quroli borligini, tajovuz qilish joyi, vaqt va boshqalarni) hisobga olish zarur. Bir guruh shaxslar hujum qilganda mudafaalanuvchi hujum qiluvchilardan har biriga nisbatan butun guruh harakatlarining xavfi va xususiyati bilan belgilanadigan himoyalanish choralarini ko‘rishga haqlidir.

Shaxsning ma’muriy huquqbazarlik uchun ma’muriy javobgarlikni belgilab beruvchi normativ hujjatlarda ko‘zda tutilgan harakatni sodir etganligi, u zaruriy mudofaa holatida harakat qilganligi aniqlanganda, ishni qarab chiqish boshlanishi kerak emas, balki boshlangan ish to‘xtatilishi lozim.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, bu masalaga doir qaror bayonnomani tuzish vaqtida ham, shuningdek ishni ko‘rib chiqish chog‘ida ham qabul qilinishi mumkin. Demak, zaruriy mudofaa holatida harakat qilayotgan shaxs o‘zining ijtimoiy burchini bajarayotgan hisoblanadi.

Zaruriy mudofaani qo‘llashning assoslari quyidagilarda ifodalanadi:

- 1) zaruriy mudofaa aktini qo‘llash uchun ma’muriy tajovuz ijtimoiy xavfli bo‘lishi kerak;
- 2) tajovuz mudafaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlariga, davlat yoki jamiyat manfaatlariga qarshi qaratilgan bo‘lishi kerak.

Zaruriy mudofaaning huquqiy shart (belgi)lari quyidagilardir:

- 1) zaruriy mudofaa faqat harakat orqali sodir etiladi;
- 2) zarar faqat tajovuzning o‘zigagina yetkaziladi;
- 3) huquqbazarlikka suiqasd qilish vaqtida oxiriga yetkazilmagan vaqt ichidagina zaruriy mudofaa qo‘llanishi mumkin;
- 4) zaruriy mudofaaning maqsadi tajovuzni bartaraf qilishga qaratilgan bo‘ladi;
- 5) hujum va mudofaaning xarakteri bir-biriga muvofiq bo‘lishi kerak.

Zaruriy mudofaa faqat harakat orqali sodir qilinadi. Harakatsizlikdan zaruriy mudofaa aktini qo‘llash mumkin bo‘lmaydi. O‘z mazmuniga ko‘ra zaruriy mudofaa tufayli tajovuzchiga jismoniy va mulkiy zarar yetkazilishi mumkin. Jismoniy zarar tajovuzchining badaniga shikast yetkazishda, mulkiy zarar esa tajovuzchining mulkiga zarar yetkazish yoki mulkini nobud qilish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda yoki boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan, huquqlarga hamda qonun bilan himoya etiladigan manfaatlarga zarar yetkazilgan oxirgi zarurat holatida, ya’ni shaxsga yoki mazkur shaxsning yoxud boshqa shaxsning huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid etayotgan xavfni, basharti bu xavfni o‘sha holatda boshqa choralar bilan bartaraf etib bo‘lmasa hamda yetkazilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo‘lsa, bartaraf etish uchun sodir etilgan harakatlar Ma’muriy huquqbazarlik deb hisoblanmaydi (19-modda).

Ayrim yuridik adabiyotlarda oxirgi zaruratga ijtimoiy baho berilar ekan, u ijtimoiy xavfli emas deb hisoblanadi. Ammo aytish kerakki, oxirgi zaruratda ikki qonun bilan qo‘riqlanadigan munosabatlar to‘qnashadi. Ana shu to‘qnashuv natijasida kamroq zarar yetkazadigan munosabatga imtiyoz beriladi. Aynan imtiyoz beriladigan munosabat inson sog‘lig‘i bo‘lishi mumkin. Oxirgi zaruratda har ikkala munosabat ham qonun bilan qo‘riqlanar ekan, ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lgan munosabatni xavfdan saqlab qolish uchun kamroq ahamiyatga ega bo‘lgan munosabatga zarar yetkaziladi va shu yo‘l bilan ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lgan munosabat saqlab qolinadi.

Oxirgi zarurat holati huquqlarga va qonun tomonidan muhofaza qilinayotgan manfaatlarga haqiqatda soxta emas, balki real xavf-xatar mavjud bo‘lgan taqdirda paydo bo‘ladi. Mazkur muhofaza qilinayotgan manfaatlarga faqat kelgusida xavf-xatar vujudga kelishi mumkin bo‘lsa, oxirgi zarurat bo‘lmaydi.

Oxirgi zaruratda tahdid soluvchi xavf-xatar manbalari, xususan, tabiiy ofat kuchlari – suv toshqinlari, yong‘inlar, zilzilalar va hokazolar, yovvoyi yoki uy hayvonlarining odamga hujum qilishi;

yuqori xavf-xatar manbai bo‘lib, masalan, nosoz avtomashina; huquq bilan muhofaza qilinadigan manfaatlariga zarar yetkazuvchi yoki zarar yetkazish tahdidini solayotgan odam ham bo‘lishi mumkin.

Qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarni himoya qilish barcha fuqarolarning vazifasidir. Ayrim xizmat qismlarida (masalan, miliitsiya xodimlari, o‘t o‘chirish xizmati xodimlari,

qutqaruв xizmati xodimlari va hokazolar uchun) ijtimoiy munosabatni har qanday tajovuzdan yoki xavfdan himoya qilish ularning majburiyati hisoblanadi va o‘zlariga yuklatilgan xizmat majburiyatini bajarmagan taqdirda huquqiy javobgarlik vujudga keladi.

Oxirgi zaruratda mudofaalanuvchi aniq sodir bo‘lgan xavfni bartaraf qilish uchun qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa ijtimoiy munosabatga zarar yetkazadi.

Masalan, ko‘p qavatli uyning xonalaridan birida yong‘in sodir bo‘ladi. Ushbu yong‘inni o‘chirish uchun qo‘shni oilaning balkonidagi derazani sindirib kirib o‘chirish imkoniyati bo‘lganligi sabali, o‘t o‘chiruvchilar yong‘in sodir bo‘lgan oila qo‘shnisining balkonidagi derazasini sindirib kiradilar va yong‘inning boshqa xonalarga ham tarqalib ketishining oldi olinadi. Bunday holda zarar yong‘in sodir bo‘lgan oilaga emas, balki qo‘shnisining mulkiga zarar yetkazildi, ya’ni uchinchi shaxsning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga zarar yetkazildi.

Oxirgi zaruratni qo‘llash asoslari. Har qanday xavf, tabiiy ofat (yong‘in, sel, yer qimirlash), ishlab turgan mashina va mexanizmlar, turli qurilmalar, qisqasi har qanday xavf manbai, insonlar hayoti, sog‘lig‘i, huquqlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga xavf tug‘dirib

turadi. Ana shunday xavf aniq yuz beganda, bu xavfni bartaraf qilish uchun zaruriy chora sifatida oxirgi zarurat chorasi qo'llanishi mumkin. Xavf manbai ochlik, tashnalik, qattiq sovuq, og'ir kasallik va hokazolar ham bo'lishi mumkin.

Masalan, o'z uyini ta'mirlayotgan B. devor ustidan yiqilib, hayoti uchun xavfli bo'lgan jarohat oladi. Uning qo'shnisi A. shu joyda qisqa vaqtga qoldirilgan birovning avtomashinasiga egasidan so'ramay, B. ni yuklab, shifoxonaga yetkazadi. Ko'rsatilgan tez tibbiy yordam tufayli B. ning hayoti saqlab qolinadi.

19-moddada ikkita shart keltirib o'tilgan, ularga muvofiq oxirgi zarurat holatida bo'lgan shaxs ma'muriy javobgarlik tarkibini hosil qiladigan harakatlar uchun ma'muriy javobgarlikdan ozod etiladi. Bu shartlardan biri huquqni muhofaza qilish manfaatlariga bo'layotgan tahdidni boshqa vositalar bilan bartaraf etishning mumkin emasligidir. Ikkinci shart – yetkazilgan zarar bartaraf etilgan zarardan kamroq ahamiyatli bo'lishi lozim.

Huquqni muhofaza qilish manfaatiga zarar yetkazishni, basharti odamda ancha qimmataho boylikni saqlab qolish uchun boshqa iloj bo'lmasa, o'zini oqlagan deb hisoblash mumkin. Shuning uchun ham huquqni muhofaza qilish manfaatlariga bo'layotgan tahdid aniqlangan taqdirda bunday tahdidning oldini olish yoki uni bartaraf etishning g'ayrihuquqiy bo'limgan yo'llari izlanishi lozim. Basharti bunday imkoniyat bo'lmasa, huquqni muhofaza qilish manfaatini eng kam darajada buzadigan choralar qo'llanilishi, ya'ni eng kam xavfli huquqbazarliklar keltirib chiqaradigan harakatlar sodir etilishi lozim. Zararning oldini olish uchun foydalilanigan usul mumkin bo'lgan birdan-bir usul bo'lgan-bo'limganligi masalasi ishning muayyan shart-sharoitlarini hisobga olgan holda hal etiladi.

Oldi olingan va yetkazilgan zararni qiyoslash uchun himoya qilinayotgan va sodir etilgan manfaatlarning ijtimoiy-siyosiy mazmunini hisobga olish kerak. Insonning hayoti va sog'lig'ini mulkiy manfaatlarga solishtirganda ustuvorlik odamlar hayoti va sog'lig'iga beriladi. Basharti mulkiy manfaatlarni himoya qilish uchun shunday manfaatlar

buziladigan bo‘lsa, u holda yetkazilgan va oldi olingan zararga baho berishning qiymat omili tatbiq etiladi.

Basharti shaxs ma’muriy huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi normativ hujjatlarda nazarda tutilgan harakatni sodir etgan shaxs oxirgi zarurat holatida harakat qilgan bo‘lsa, ish yuzasidan masalani ko‘rib chiqish boshlanishi mumkin emas, balki boshlangan ish to‘xtalishi darkor. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, bu masalaga doir qaror bayonnomani tuzib chiqish vaqtida ham, shuningdek ishni ko‘rib chiqish paytida ham qabul qilinishi mumkin. Xavf manbai odamlarning ijtimoiy xavfli harakatlari ham bo‘lishi mumkin.

Oxirgi zaruratning belgilari quyidagilarda ifodalanadi:

Birinchi belgisi oxirgi zarurat tufayli qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatga zarar yetkaziladi. Bunday zarar xavfni keltirib chiqargan shaxsnинг o‘ziga yoki boshqa shaxslarga yetkazilishi mumkin. Masalan, o‘z uyida gazdan foydalanish qoidalarini buzganligi tufayli kelib chiqqan yong‘in qo‘shni uylarga ham o‘tib ketishining oldini olish uchun yonayotgan uyning qo‘shni bilan tutash bo‘lgan tom qismini olib tashlash, fermer xo‘jaligining chorva mollarini yong‘indan saqlab qolish maqsadida molxonaning devorini yiqitib, mollarni olib chiqish va hokazolar.

Oxirgi zarurat tufayli faqatgina kishilar hayoti, sog‘lig‘igagina emas, balki fuqarolarning mulkiga, har qanday mulkga, tabiiy muhitga, qishloq xo‘jaligiga va hokazolarga zarar yetkazilishi mumkin. Masalan, bug‘doy dalasida yuz bergen yong‘in tarqalib ketmasligi uchun himoya chizig‘i sifatida bug‘doyzorlarni haydash (shudgor qilish).

Ikkinci belgisi oxirgi zarurat faqat xavf boshlangan va tamom bo‘lмаган vaqt mobaynidagina qo‘llanadi. Hali boshlanmagan va tugab bo‘lgan xavfga nisbatan oxirgi zarurat chorasi qo‘llash mumkin emas.

Uchinchi belgisi vujudga kelgan xavfni boshqa biror chora orqali bartaraf qilishning iloji bo‘lмаган bo‘lishi va qo‘llangan chora xavfni bartaraf qilishning oxirgi chorasi bo‘lishi kerak.

Yo‘lga birdaniga yugurib chiqib qolgan bolani bosib ketmaslik uchun haydovchi mashinani yo‘lning o‘ng tomoniga burib yuboradi.

Natijada yo‘lakda (trotuarda) ketayotgan ayolni urib yuborib, badaniga og‘ir shikast yetkazadi. Xuddi shu vaziyatda avtomobilni yo‘lning chap tomoniga burib yuborish imkoniyati bor edi deb haydovchining harakati oxirgi zarurat deb topilmaydi.

To‘rtinchi belgisi xavf manbai tomonidan keltirilishi mumkin bo‘lgan zarardan, oxirgi zarurat tufayli keltirilgan zarar kamroq bo‘lishi kerak. Ularning ahamiyati yoki miqdorini solishtirish orqali zararning ko‘p yoki kamligi aniqlanadi.

Beshinchi belgisi oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqmagan bo‘lishi kerak. Xavfning xususiyati va xavflilik darajasiga muvofiq kelmaydigan usul va vositalar bilan bartaraf qilish tufayli xavf manbai tomonidan keltirilishi mumkin bo‘lgan zarar bilan xavfni bartaraf qilish uchun keltirilgan zararning teng kelib qolishi yoki ortib ketishi oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish deb topiladi.

Quyidagi hollarda oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqqan deb topiladi:

- a) xavf manbai tomonidan keltirilishi mumkin bo‘lgan zarardan oxirgi zarurat tufayli keltirilgan zararning teng yoki ko‘proq bo‘lib qolishi;
- b) ko‘rilgan chora xavfni bartaraf qilishning yagona va oxirgi chorasi bo‘lmay boshqa choralar bilan xavfning oldini olish mumkin bo‘lganligi.

G‘ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik sodir etgan vaqtida aqli norasolik holatida bo‘lgan shaxs, ya’ni surunkali ruhiy kasallik, ruhiy faoliyatining vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoxud boshqa xil kasallik oqibatida o‘z harakatining (harakatsizligining) ahamiyatini idrok eta olmagan yoki boshqara olmagan shaxs Ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 21-moddasida huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish masalasi haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlik kam ahamiyatli bo‘lgan taqdirda sud huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod qilib, uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkin.

Agar ma'muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiquvchi boshqa organ (mansabdar shaxs) sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi haqida xulosaga kelsa, ish huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi masalani hal etish uchun ushbu Kodeksning 308¹-moddasida belgilangan tartibda sudga yuboriladi.

Ijtimoiy xavflilik huquqbuzarlikning muhim belgilaridan biri bo‘lib, kam ahamiyatli huquqbuzarliklarni huquqbuzarlik deb hisoblash uchun yetarli darajada ijtimoiy xavflilikka ega bo‘lmaydi. Aynan ana shu yetarli darajada ijtimoiy xavflilikka ega bo‘lmasligi uning huquqbuzarligini istisno qiladi. Kam ahamiyatli qilmishlarning qilmishning huquqbuzarlikligini istisno qiladigan holatlarning boshqa turlaridan farqi shundaki, qilmishda huquqbuzarlik tarkibining aybliligi va huquqqa xilofligi belgilari mavjud bo‘ladi. Ammo aybning mazmuni qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosobatlarga zarar yetkazish xususiyatiga ega bo‘limganligi yoki yetkazilgan zarar oz miqdorda ekanligi bilan ifodalanadi.

Qilmishning kam ahamiyatliligi, bu qilmishning xususiyati, sodir etish sharoiti, zararli oqibatning jabrlanuvchi hayotida deyarli ahamiyatga ega emasligi, subyektning maqsadi jabrlanuvchiga jiddiy zarar yetkazish maqsadining yo‘qligi va hokazolarni aniqlash orqali belgilanadi. Demak, qilmishning kam ahamiyatliligi individual ravishda aniqlanadi. Masalan, O‘zR Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 61-moddasida oz miqdordagi mulkni mulkchilik shaklidan qat’i nazar, korxona, muassasa, tashkilotlarining mulkini o‘g‘rilik, o‘zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste’mol qilish yoki firibgarlik yo‘li bilan oz miqdorda talon-toroj qilingan bo‘lsa, qilmish jinoyat hisoblanmay, aybdor ma’muriy javobgarlikka tortiladi. Talon-toroj qilingan mulkning qiymati belgilangan eng kam oylik ish haqidan oshmasa, bunday talon-toroj oz miqdorda qilingan deb topiladi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 61-moddasida nazarda tutilgan ushbu qoida jismoniy shaxslarning, tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan shaxslarning mulkini talon-toroj qilishga nisbatan qo‘llanmaydi.

Jabrlanuvchiga yetkazilgan zararning oz miqdorda deb hisoblash uchun zararning jabrlanuvchi uchun ahamiyatini ham hisobga olish kerak bo‘ladi. Masalan, bog‘dan bir yoki ikki kg meva o‘g‘irilash harakatlarida, o‘g‘irilik jinoyat tarkibining barcha belgilari bo‘lsa-da, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararning miqdori oz bo‘lganligi uchun qilmishni kam ahamiyatlidir deb topish mumkin.

Qilmishni kam ahamiyatlidir deb topishda shaxsning maqsadi ham hisobga olinadi. Masalan, shaxs ancha miqdordagi mulkni talon-toroj qilishni maqsad qilgan, ammo o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra, yetkazilgan zarar oz miqdorni tashkil qilsa, kam ahamiyatlidir qilmish hisoblanmay ushbu kodeksining tegishli moddasi bilan javobgarlikka tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga 21¹-moddasi O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O‘RQ-459-sonli Qonuniga asosan kiritilgan (21¹-modda). Jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo‘rqtish) bo‘lib, unga asosan jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud shunday majburlashni qo‘llash bilan qo‘rqtish natijasida ushbu Kodeks bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazgan shaxs, agar bunday majburlash yoki qo‘rqtish natijasida shaxs o‘z harakatlarini (harakatsizligini) boshqara olmagan bo‘lsa, ma’muriy javobgarlikka tortilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud shunday majburlashni qo‘llash bilan qo‘rqtish natijasida zarar yetkazganlik uchun ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi masala, agar bunday majburlash yoki qo‘rqtish oqibatida shaxs o‘z harakatlarini (harakatsizligini) boshqarish imkoniyatini saqlab qolgan bo‘lsa, Kodeksning 19-moddasi qoidalari inobatga olingan holda hal etiladi.

MUAMMOLI SAVOLLAR:

1. Ma’muriy javobgarlik fanining vazifalarini tahlil qiling? O‘z tahlilingizni bir necha amaliy misollar asosida bayon eting.
2. Ma’muriy javobgarlik fanining vazifalarini tahlil qiling.

3. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarini sanab o'ting O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida tahlil qiling.

4. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy prinsiplarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida tahlil qiling.

5. Ma'muriy huquqbazarlikning yuridik xususiyatlarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida tahlil qiling.

6. Ma'muriy huquqbazarlikning boshqa g'ayriqonuniy xattiharakatlardan farqi nimalarda ifodalanadi.

7. Ma'muriy huquqbazarlikning jinoiy huquqbazarlikdan farqini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida tahlil qiling.

8. Ma'muriy huquqbazarlikning yuridik tarkibi tushunchasini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida tahlil qiling.

9. Ma'muriy huquqbazarlikning obyekti nima va u o'zida qanday belgilarni mujassamlashtiradi.

10. Ma'muriy huquqbazarlikning obyektiv tomonini tahlil qiling.

11. Ma'muriy huquqbazarlikning subyekti kimlar va u o'zida qanday belgilarni mujassamlashtiradi?

12. Ma'muriy huquqbazarlikning subyektiv tomonini tahlil qiling.

13. Ma'muriy huquqbazarlikning jinoiy huquqbazarlikdan farqini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida tahlil qiling? O'z tahlilingizni bir necha amaliy misollar asosida bayon eting.

14. Voyaga yetmaganlarning ma'muriy javobgarligi tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling.

15. Mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligi tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling.

16. Xizmatchilar va intizom ustavlari tatbiq etiladigan boshqa shaxslarning ma'muriy javobgarligi tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling? O'z tahlilingizni bir necha amaliy misollar asosida bayon eting.

17. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning ma'muriy javobgarligining o'ziga xos jihatlarini tahlil qiling.

18. O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy javobgarlikka oid huquq normalarida maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun shaxslarning ma’muriy javobgarligi tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling?

19. O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy javobgarlikka oid huquq normalarida zaruriy mudofaa tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling?

20. O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy javobgarlikka oid huquq normalarida oxirgi zarurat tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling?

21. O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy javobgarlikka oid huquq normalarida huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling?

22. Ma’muriy jazo tushunchasi uning belgilarini tahlil qiling?

O‘z tahlilingizni bir necha amaliy misollar asosida bayon eting.

23. Ma’muriy jazoning maqsadi nimalarda namoyon bo‘ladi?

O‘z tahlilingizni bir necha amaliy misollar asosida bayon eting.

24. Ma’muriy jazo chorralari turlarini tahlil qiling.

O‘z tahlilingizni bir necha amaliy misollar asosida bayon eting.

25. Ma’muriy jarima tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qiling? O‘z tahlilingizni bir necha amaliy misollar asosida bayon eting.

26. Haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish va uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qiling? O‘z tahlilingizni bir necha amaliy misollar asosida bayon eting.

27. O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy javobgarlikka oid huquq normalarida musodara qilish mazmuni va xususiyatlari tahlil qiling.

28. Maxsus huquqdan mahrum etish tushunchasi va turlarini tahlil qiling? O‘z tahlilingizni bir necha amaliy misollar asosida bayon eting.

29. Ma’muriy qamoqqa olish mazmunini tahlil qiling?

O‘z tahlilingizni bir necha amaliy misollar asosida bayon eting.

30. Ma’muriy qamoqqa olish qo‘llanilmaydigan holatlarni tahlil qiling? O‘z tahlilingizni bir necha amaliy misollar asosida bayon eting.

31. Ma’muriy jazo qo‘llanilishining umumiyligi qoidalari tahlil qiling? O‘z tahlilingizni bir necha amaliy misollar asosida bayon eting.

32. Ma’muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarga nimalar kiradi? O‘z tahlilingizni bir necha amaliy misollar asosida bayon eting.

33. Ma’muriy javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlarga nimalar kiradi?

34. O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy javobgarlikka oid huquq normalarida yengilroq ma’muriy jazo chorasining qo‘llanilishi asoslari qanday?

35. Bir necha huquqbazarlikni sodir etganlik uchun ma’muriy jazoni qo‘llash tartibini tahlil qiling? O‘z tahlilingizni bir necha amaliy misollar asosida bayon eting.

36. Ma’muriy jazoni qo‘llash muddatlarini batafsil tahlil qiling?

O‘z tahlilingizni bir necha amaliy misollar asosida bayon eting.

37. O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy javobgarlikka oid huquq normalarida yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini yuklash tushunchasi va undan ko‘zlangan maqsad nima. O‘z tahlilingizni bir necha amaliy misollar asosida bayon eting.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Raxbariy adabiyotlar:

1.1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz // Xalq so'zi.– 2016.–15 dekabr.

1.2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz.– Toshkent: O'zbekistan, 2017.

1.3. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir / O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2018. – 8 dekabr.

II. Normativ huquqiy-hujjatlar:

2.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. //www.lex.uz//

2.2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (2017 yil 1 aprelgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan. lex.uz).// www.lex.uz//

2.3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (2017 yil 1 aprelgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan)// www.lex.uz//

2.4. O'zbekiston Respublikacining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni. //www.lex.uz//

2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni // (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami – 2016 – № 40-son, 467-modda).

2.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 – № 43-son, 497-modda).

2.7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. –2010. – № 9. – 342-modda.

2.8. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2010. – №37. 317-modda.

2.9. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2010. – №48. 446-modda.

2.10. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2010. – №48. 445-modda.

2.11. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2011. – №42. 452-modda.

2.12. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017. – 27 mart. №12. – 184-modda.

2.13. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami . – 2012. – №26-27. 295-modda.

2.14. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2014. – №39. 490-modda.

2.15. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2014. – №4. 48-modda.

2.16. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2012. – №23-24. 265-modda.

2.17. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2014. – №20. 221-modda.

2.18. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 mayda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi Qonuni. // Xalq so'zi. – 2014. – №94 (6024).

2.19. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2014. – №20. – 1-modda.

2.20. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuni. Xalq so'zi. – 2016. – №182 (6617).

2.21 O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrdagi “Ichki ishlari organlari to'g'risida”gi Qonuni. Xalq so'zi. – 2016. – №184 (6619).

2.22. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. –2017. 27 mart. – №12. 184-modda.

2.23. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 8 sentabrdagi O'RQ–444-sonli “Bolalarни ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida”gi Qonuni.

2.24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi”//Xalq so'zi. – 2017. – 8 fevral` . – №28 (6722).

2.25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 fevraldag'i “Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida”gi qarori. // Xalq so'zi. – 2018. – 15 fevral` . – №31 (6989).

2.26. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet el fuqarolari

va fuqaroligi bo'limgan shaxslarni doimiy va vaqtincha propiska qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018 yil 28 avgustdagি PQ-3924-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 845-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.10.2018 y., 09/18/845/2090-son.

2.27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 5 yanvardagi “O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4262-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2011. – № 1-2. 2-m.

2.28. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 23 sentyabrdagi “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2016. – № 39. 457-m.

III. Darslik, o'quv qo'llanma va maqolalar:

3.1. O'zbekiston yuridik entsiklopediyasi. – Toshkent: Sharq, 2011. T.3.

3.2. M.H.Rustamboyev. Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiyl qism. –Toshkent. Adolat, 2016.

3.3. Fuqarolik huquqi (II qicm).–Toshkent.:Adolat – 2016, – B.335.

3.4. Rustamboyev. M.H. O'zbekiston Respublikacining Jinoyat kodeksiga sharxlar. Maxsus qism. – Toshkent: Adolat, 2016.

3.5. Xamedov I. Administrativnoe pravo. Uchebnik. – T.:UMED, 2004. – C. 234.

3.6. E.Xojiyev, T.Xojiyev. Ma'muriy huquq: Bakalavriatning 5380100 - Yurisprudensiya yo'nalishi talabalari uchun darslik / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.X.Rustambayev.– T. 2006. – B. 800.

3.7. Ma'muriy huquq: Darslik / X.T. Odilqoriyev, I.Ismailov, N.T. Ismailov va boshq.; prof. X.T. Odilqoriyev va B.YE.Qosimovning umumiyl tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010. – B.640.

3.8. E.Xojiyev, T.Xojiyev. Ma'muriy huquq. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – B. 608.

3.9. Prusakova M.G. Administrativnaya otvetstvennost` za pravonarusheniya inostrannix grajdani i lits bez grajdanstva // Biznes v zakone. Ekonomiko-yuridicheskiy jurnal. – 2009. – №1. – S. 307.

3.10. Xamedov I. Administrativnoe pravo. Uchebnik. – T.: UMED, 2004. – C. 158.

3.11. Stepanov A.V. Organizatsionno-pravovie aspekti deyatel`nosti organov vnutrennih del po obespecheniyu administrativno-pravovogo statusa inostrannix grajdani (pravil prebivaniya v RF):Avtoref. dis. ... kand. yurid. nauk. – Omsk., 2003. – S. 8.

3.12. Shatoxin I.V. Administrativnie pravonarusheniya v sfere obespecheniya rejima prebivaniya inostrannix grajdani i lits bez grajdanstva na territorii Yuzhnogo federal`nogo okruga: istoriko-pravovoy analiz: Avtoref. diss. ... kand. yurid. nauk. – M.: Krasnodarskiy universitet MVD Rossii, 2012. – S. 10.

3.13. Gorbunov V.YU. Administrativno-pravovie osnovi deyatel`nosti organov vnutrennih del po obespecheniyu rejima prebivaniya inostrannix grajdani i lits bez grajdanstva v Rossiyskoy Federatsii: po materialam Dal`nevostochnogo Federal`nogo okruga: Avtoref. dis. ... kand. yurid. nauk. – Omsk., 2006. – S. 8.

3.14. A.A.Istratov. Administrativno-pravovoy mexanizm obespecheniya rejima prebivaniya v Rossiyskoy Federatsii inostrannix grajdani i lits bez grajdanstva: Avtoref. dis. ... kand. yurid. nauk. – M., 2007. – 26 s.

3.15. O.N.Sherstoboev. Administrativno-pravovoe obespechenie poryadka prebivaniya inostrannix grajdani v Rossiyskoy Federatsii (na materialakh Sibirskogo federal`nogo okruga): Avtoref. dis. ...kand. yurid. nauk. – Chelyabinsk: Sibirskogo universiteta potrebitel`skoy kooperatsii, 2009. – S. 23?24.

3.16. Yusupov A.N. Militsiya tayanch punkti faoliyatini tashkil etish va hujjatlarining namunalari. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2011. – B. 304.

3.17. Rustamov S.S. Ma'muriy tartibda chiqarib yuborish – jazo chorasi sifatida // Ma'muriy qonunchilikni takomillashtirish – sud-huquq sohasidagi islohotlarning muhim yo'nalishi: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2012 yil 29 noyabr). – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – B. 147.

